جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 15-noyabr
№ 47(47)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

MUQADDAS BURCH

Akif BAG‘IROV:



Yana xayol uzra tashbehlar xil-xil,
Bir payg‘om vasliga talpinar dadil.
Ilhom parisining xushxabaridan
Sarxush sandug‘ochday yayramoqda dil –
O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan!

Asrab na’rasini, yangroq sasini –
Qadim Xorazmning xazinasini,
Ikki yarim, uch ming yillar naridan
Opichlab Avesto dafinasini,
O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan!

Bir qanot – Alpomish, bir qanot – Shiroq,
Bir yon – Alp Er To‘nga, yengilmas tuproq.
O‘t olib mangulik samandaridan,
To‘marislar qalbin yoritgan chiroq –
O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan!

(2-sahifada o‘qing).

MUNOSABAT

O‘ZBEKISTON UCHUN OCHIQ ESHIKLAR





O‘tayotgan haftada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navbatdan tashqari arab-islom sammitida ishtirok etish uchun Saudiya Arabistoniga, shuningdek, iqlim o‘zgarishlariga bag‘ishlangan COP29 sammitida qatnashish uchun Ozarbayjonga tashrif buyurdi.

O‘ZBEKISTON – TINCHLIK VA DIPLOMATIYA TARAFDORI

Joriy haftada jahon hamjamiyati, xususan, musulmon olamining diqqat e’tibori Saudiya Arabistoniga qaratildi. 11-12-noyabr kunlari Ar-Riyod shahrida dunyodagi 50 dan oshiq mamlakat rahbarlari ishtirokida navbatdan tashqari arab-islom sammiti o‘tkazildi. Mazkur yirik xalqaro anjuman musulmon olamida G‘azo sektori va Livanda yuzaga kelgan beqaror vaziyat yuzasidan yagona pozitsiyani ishlab chiqish masalalariga bag‘ishlandi.

Ma’lumki, Yaqin Sharqda 1967-yilda boshlangan notinchlik shu paytga qadar ma’lum tanaffuslar bilan davom etib kelmoqda. Mintaqadagi harbiy to‘qnashuvlar yarim asrdan ortiq vaqt davomida minglab insonlar, xususan, tinch aholi vakillarining hayotiga zomin bo‘lmoqda. 2023-yilning 7-oktyabrda XAMAS kuchlarining hujumi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirga qadar G‘azo mintaqasida 44 mingga yaqin tinch aholi qurbon bo‘lgan.

Davlatimiz rahbari doim har qanday qonli mojarolarni faqat tinch yo‘l bilan hal etish siyosatini ilgari surib kelgan. Zotan, muqaddas dinimizda ham tinchlik, do‘stlik, murosa-yu madora yo‘lini tutish targ‘ib qilinadi. Prezidentimiz mazkur sammitda so‘zlagan nutqida bugungi kunda musulmon dunyosi uchun dolzarb bo‘lib turgan masalalarga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, Global siyosat kun tartibidagi eng o‘tkir va og‘riqli masala – Falastin muammosiga alohida to‘xtalib: **“O‘zbekiston Falastin – Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Bu borada bugungi sammitimizda umumiy siyosiy iroda va birdamlikni namoyon etib, global va mintaqa darajasida samarali mexanizmlar va aniq yechimlar ishlab chiqib, hayotga tezroq joriy etilishiga ishonamiz”,** deya ta’kidladi.

(Davomi 2-sahifada).

JARAYON

NIYAT, QAT’IYAT – MUVAFFAQIYAT

Azaldan ayollar siyosatdan yiroq bo‘lmagan. Sharqning bu boradagi tajribasi G‘arbnikidan aslo kam emasligiga oid asosli ma’lumotlar yetarli. Agar dunyo avvalambor yurtimizni qudratli markazlashgan davlat barpo etgan Sohibqiron Amir Temur shaxsi orqali tanigan bo‘lsa, shubhasiz, bunda Saroymulkxonimning ham beqiyos o‘rni bor.

Davlatchiligimiz boshqaruvi tarixida To‘marisdan boshlangan bu an’anani davrimizning yetakchi ayollari munosib davom ettirmoqda.

Bugun Yangi O‘zbekiston parlamentida qabul qilinayotgan xalqchil qonunlarni ishlab chiqishga munosib hissa qo‘shayotgan xotin-qizlarimiz safi tobora kengayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ilk sovrindorlaridan biri, taniqli kompozitor Oydin Abdullayeva ana shunday ayollar sirasiga kiradigan, so‘zi va ishi bir bo‘lgan xalq vakilidir.

(Davomi 4-sahifada).





Gazetamizning o‘tgan sonida turkiyalik atoqli olim, xalqaro Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar Turkiy davlatlar tashkilotining Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotiga sazovor bo‘lgani haqida xabar bergan edik. Turkiyada faoliyat ko‘rsatayotgan hamyurtimiz – adabiyotshunos Zaynobiddin Abdurashidov olim bilan bog‘lanib, uning bu boradagi fikrlarini yozib oldi.

Quyida ana shu suhbatni e’tiboringizga havola qilamiz.

Aziz SANJAR,
Xalqaro Alisher Navoiy hamda Nobel mukofoti laureati:

“DUNYO YANGI NAVOIY VA XORAZMIYLARNI KUTMOQDA...”

– O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga asosan ta’sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlanganingizni eshitib juda xursand bo‘ldik. Fursatdan foydalanib, Sizni yana bir bor ushbu yuksak e’tirofga loyiq ko‘rilganingiz bilan tabriklaymiz.

– Tashakkur. Alisher Navoiy nafaqat Turkiy dunyo, balki jahon adabiyotining eng buyuk shoiridir. U bundan qariyb 600 yil avval yashagan bo‘lsa ham o‘z asarlari va tafakkuri bilan jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan xizmat qilgan ulug‘ mutafakkirdir. Aytmoqchimanki, Alisher Navoiyning beqiyos ijodiy merosi yer yuzida do‘stlik va tenglikni qaror toptirish, xususan, turkiy dunyo birligini mustahkamlashga qaratilgani bilan ayniqsa qiymatlidir. Mumtoz shoirning quyidagi satrlari yuragimdan chuqur joy olgan bo‘lib, ul zotning yuksak ma’naviy idealini go‘zal bir shaklda ifodalaydi:

Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim,
erur yorlig‘ ish.

Bugungi kunda dunyoda sovuq urush shamollari yana takror esmoqda. Shunday rutubatli bir vaqtda, turkiy dunyo yuz yillar davom etgan ayriliqdan so‘ng birlashish jarayoniga kirgan bir pallada hazrat Navoiy qoldirgan ma’naviy qadriyat va teran fikrlar insoniyat uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston – o‘nlab jahonshumul allomalarni yetishtirgan ilm-fan va sivilizatsiyaning muqaddas o‘chog‘idir.

(Davomi 2-sahifada).

TAKLIF

KENGASHLI TO‘Y TARQAMAS. KENGASHLI TV-CHI?

Xalqimiz har neki ishga kirishsa, kengashib, bamaslahat qilishga odatlangan. Zotan, biz bu olamda, bu shahar yo mahallada faqat o‘zimizgina yashamaymiz. Birgina bizning tushunchamiz, aql-u shuurimiz yetganicha qilgan ishimiz, harakatimiz bu jamiyatga yo samara yo zarar keltirishi mumkin. Foydasidan zarari bisyor amallardan asrasin.



Ha, haytovur “demokratiya” degan so‘zni ustuvor qilib olishniyam bilamiz. Ha, bor bo‘lsin shu demokratiya. Ammo bu so‘zni yaratganlarning maqsadini oydinroq ko‘rinishda ochib ko‘rsak, buning ma’nosidan hammaning yashash tartibi sanalgan jamiyat qoidasiga moslik nazarda tutilganiyam anglashiladi. Har holda, jamiyatni ongdan mosuvo qilish yo‘q uning maqsadida...

“Oynai jahon”, ya’ni televideniyni ixtiro qilganlarga ming tasanno aytamiz va uning faoliyatini yuritayotganlarga Xudodan insof-u tavfiq so‘raymiz. Zero, shu vosita tilimizning ravonlashib chiqishiga, tushunchamizning, ongimizning bugun birovning uyidagi televizorlarni olib chiqib, namoyishkorona yakson qilib, undan foydalanganlarni kaltaklayotganlardan ko‘ra farqliroq bo‘lishiga munosib hissa qo‘shib kelyapti.

(Davomi 3-sahifada).

IBRAT

Oriflik maqomiga erishgan HOFIZ



Bobom – O‘zbekiston xalq artisti Orif Alimaxsumov betakror ovozi, manzurnafas xonishlari, keng tafakkuri, teran musiqiy ilmi, ibratli hayoti va ijodi bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, o‘z ismiga monand ravishda haqiqiy oriflik rutbasiga erishgan inson edilar. O‘zbek maqom ijrochiligi san’atida yorqin iz qoldirgan hofiz 1926-yili (hujjatlarda 1927-yil) Toshkent shahrida, Olimaxsum Shoshiy oilasida tavallud topgan.

Bobom yoshligidan ashula aytishga, soz chalishga qiziqar ekan. Ammo, o‘zlarining hikoya qilishicha, tirikchilik vajidan bolalik paytidan to‘qimachilik korxonasiga ishga kiradi. Dastlab ustalarga shogird bo‘lib, ulardan to‘qimachilik dastgohini ishlatish sirlarini o‘rganadi, ko‘p o‘tmay, o‘zi ham usta darajasiga yetadi.

Xudo yuqtirgan bo‘lsa, kishining iste’dodi yuzaga chiqmay qolmas ekan. Korxonada doimo radio yangrab turar, unda berilayotgan ashulalarni zehni o‘tkir Orifjon tezda yodlab olib, xuddi ustozlar singari ijro qilar edi. Uning bu qobiliyatini payqagan kasbdoshlari bayram, to‘y-hashamlarga xizmatga chaqira boshlaydi.

Yosh ashulachining yoqimli ovozi qo‘qonlik mashhur hofiz, O‘zbekiston xalq artisti Eshmat Haydarovning e’tiboriga tushadi. Bag‘rikeng ustoz bobomni shogirdlikka olib, u kishiga Farg‘ona – Toshkent maqomlarida ijro etiladigan bir qancha katta ashulalarni o‘rgatadi.

Professional san’at olamiga zo‘r ishtiyoq bilan kirib kelgan Orif Alimaxsumov o‘z davrining zabardast xonandalari bo‘lmish Karim Zokirov, Turg‘un Karimov, Akbar qori, aka-uka Shojalilovlar, aka-uka So‘fixonovlar ijro yo‘llarida ijod qilib, ular kuylagan qo‘shiq va ashulalarni xuddi o‘zlari singari maromiga yetkazib ijro eta boshlaydi.

(Davomi 8-sahifada).

SHU SONDA:

IOSIF STALIN va FAYZULLA XO‘JAYEV O‘RTASIDAGI AYOVSIZ BAHS

(7-sahifada o‘qing).

“NEGA AYRIMLAR O‘Z TILIDA SO‘ZLASHMAYDI?”

(2-sahifada o‘qing).

O‘ZBEKISTON UCHUN OCHIQ ESHIKLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekiston rahbarining Yaqin Sharqda ro‘y berayotgan xunrezliklarga nisbatan haqqoniy va odilona munosabati anjumanda katta e’tibor bilan tinglandi. Zotan, Falastindagi nohaqlikka jahon hamjamiyatining befarqligi yoxud noxolis nuqtayi nazardan baholashi tuzatib bo‘lmas oqibatlarni keltirib chiqarishi hech gap emas.

Prezident ta’kidlab o‘tganidek, mintaqadagi harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ta’minlash va eng asosiysi – tinchlik muzokaralarini boshlash masalalari bu universal xalqaro tuzilmaning doimiy e’tibor markazida turishi maqsadga muvofiqdir.

“Aminmanki, bu qadimiy va boy tarixga ega xalq 1967-yildagi chegaralar doirasida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil va ozod davlatini tuzishga to‘la haqlidir. Bu borada biz Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan tashkil etilgan Ikki davlat yechimi uchun global alyans faoliyatini har tomonlama ma’qullaymiz”, dedi o‘z nutqida yurtboshimiz.

Shuningdek, Prezidentimiz Falastin va Livan hududidagi misli sizgumanitar inqirozning oldini olish maqsadida davlatlarimiz tomonidan hamda yetakchi xalqaro tashkilotlar doirasida yordam ko‘lamini kengaytirishni, Birlashgan Millatlar Tashkilotining katta tajribaga ega bo‘lgan institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni, urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz davolashni taklif qildi.

MUQADDAS ZAMINDAGI NUFUZLI UCHRASHUVLAR

Musulmon ulamolari orasida muqaddas Islom dini Arabiston yarimorolida nozil qilingan, ammo u aynan Movarounnahrda, bugungi O‘zbekiston zaminida sayqal topgan, degan fikr tez-tez zikr qilinadi.

Darhaqiqat, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband singari ulug‘ allomalar yaratgan buyuk meros bugungi kunda butun islom olamining bebaho xazinasiga aylangan.

So‘nggi yillarda yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligini ta’minlash, milliy va diniy qadriyatlarni himoyalash, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini keng targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yilning 23-iyun kuni Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy qarorining qabul qilinishi bu masalada qo‘yilgan eng ulug‘ qadamlardan biri bo‘ldi.

Prezidentimiz 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa sifatida e’tirof etdi. Mamlakat yetakchisi o‘shanda nufuzli xalqaro minbardan muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralashimizni, ular bilan hech qachon murosa qilib bo‘lmasligini ta’kidlagan edi.



Davlatimiz rahbarining arab-islom sammitida ishtirok etib, global mavzuda bildirgan dadil va jur’atli fikrlari O‘zbekiston xalqaro anjuman kun tartibidagi masalalar yuzasidan qat’iy pozisiyaga ega ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Arab-islom sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi Valiahdi, Bosh vaziri Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu muloqotda O‘zbekiston-Saudiya ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Suhbat davomida davlatimiz rahbari Ar-Riyoddagi favqulodda sammit o‘z vaqtida tashkil etilgani va dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Turli darajalardagi faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga, shu jumladan 2025-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo – Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqotining ikkinchi sammitiga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi. Uchrashuvda mintaqaviy masalalar, jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish yuzasidan ham fikr almashildi. Ar-Riyodga amaliy tashrif doirasidagi tadbirlar yakunlangach, davlatimiz rahbari Bokuga yo‘l oldi.

QARDOSH YURTDAGI QIZG‘IN MULOQOTLAR

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 11-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Boku shahrida bo‘ldi. Tashrif doirasida O‘zbekiston yetakchisi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) tadbirlarida ishtirok etdi.

Ushbu anjuman bugungi kunda butun sayyoramiz ahlini tashvishlantirayotgan iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini bartaraf etish masalalariga bag‘ishlandi. Ta’kidlash lozimki, mazkur yirik anjuman jahondagi 198 mamlakatdan 50 mingdan ortiq ishtirokchini birlashtirgan.

O‘zbekiston Prezidenti mazkur nufuzli sammit yalpi majlisida nutq so‘zladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta’minlash, ichimlik suvi va resurslaridan foydalanish muammolari kuchayib bormoqda. Iqlim o‘zgarishlari mintaqamizda ham aholining turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida to‘siqqa aylanmoqda.

Prezident mamlakatimizda iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda. 2030-yilgacha havoga issiqxona gazi chiqarishni uchdan bir qismga kamaytirish rejalashtirilgan. Bu majburiyatlar 2050-yilga qadar yanada kengaytiriladi. “Yashil” energetika ulushi 40 foizga yetadi.

O‘zbekiston yetakchisi global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o‘tish maqsadida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan iqlim xatarlarini tanqidiy tahlil va moliyaviy baholash uchun yetakchi davlatlar, ko‘p tomonlama institutlar va konvensiyalarning texnik va moliyaviy ko‘magini kengaytirish maqsadida Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish taklif qilindi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash sohasida majburiyatlar to‘g‘risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusi bildirildi.

Shuningdek, O‘zbekistonda o‘simliklarning iqlimga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini hamda dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun BMTning innovatsion agrosanoat xabini tashkil etish taklif qilindi.

Iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi va yashash uchun qulay sharoitlar yaratish sohasida tajriba va bilim, eng yaxshi amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish hamda uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish tashabbusi ham ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, Prezident COP29 mamlakatlari vakillarini kelgusi yili 15-mayda – Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global festivaliga taklif etdi.

IKKI SAFAR – YAGONA MAQSAD

O‘zbekiston rahbarining hafta davomida amalga oshirgan ikki muhim tashrifi dunyoning ikki nuqtasida, turli masalalarga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, maqsad mamlakatimizning global muammolar yechimida o‘z qarashlari, o‘z qat’iyati va pozitsiyasini ko‘rsatishga qaratilgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston rahbari shu kunlarda dunyoning deyarli barcha mamlakat rahbarlarini jamlagan ikkita yirik anjumanda ishtirok etib, muhokama qilingan global masalalarga nisbatan o‘z qarashlarini, taklif va mushohadalarini dadil ilgari surdi. Bu Vatanimiz dunyo hamjamiyatining ajralmas va muhim bir bo‘lagi ekanining amaldagi isboti bo‘ldi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonga xayrixoh bo‘lgan bir qator davlatlar, xalqaro tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar, samarali muloqotlar o‘tkazildi. Bu uchrashuvlar, kelishuvlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida o‘z aksini topishiga shubha yo‘q.

Rustam JABBOROV

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM



“NEGA AYRIMLAR O‘Z TILIDA SO‘ZLASHMAYDI?”

Milliy til insonning ma’naviy boyligi sanaladi. Onalarimiz aytgan allalar orqali esa ruhiyatimizga milliylik singdiriladi. O‘z tilimizning nechog‘lik azizligini bolaligimizdayoq anglab yetamiz. Ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, deya e’tirof etgan.

Aslida, qalbida milliy g‘ururi bo‘lgan inson o‘z ona tilida ravon so‘zlay olishi va yoza bilishi shart. “O‘zbekman” deya ko‘kragini kerib yurgan ba’zi yurtdoshlarimiz esa tilimizga ruscha, inglizcha so‘zlarni qo‘shib gapirishni o‘zlariga odat qilib olgan. Ba’zilari esa o‘zbek bo‘la turib ona tilida yaxshiroq so‘zlashishni ham bilmaydi. Sababini so‘rasangiz, rus maktabida o‘qiganini, ruscha ta’lim olganini ro‘kach qiladi. “Shuning uchun o‘zbekchani yaxshi gapira olmayman”, deya o‘zini oqlab qo‘yadi.

Ammo, boshqa millat vakillari bo‘lgan hamshaharlarimizning o‘zbek tilida o‘zimizdan ko‘ra yaxshiroq gapirayotganini, qadriyatlarimizni bir o‘zbekdan kam bo‘lmagan holda qadrlayotganini ko‘rib o‘yga toladi kishi.

33 yoshli Sergey Stopnevich garchi rus oilasida voyaga yetib, ta’lim rus tilida beriladigan maktabda tahsil olgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilini juda ravon gapiradi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy g‘azallarini yoddan aytadi.

“Toshkent shahrida tug‘ilganman. Millatim rus. Lekin men, O‘zbekistonda tug‘ilib, shu yurtning havosidan nafas olib, tinch va osuda hayotida yashab kamolga yetdim. Yunusobod tumanidagi 257-maktabning rus sinfida o‘qidim. Axborot texnologiyalari universitetini ham ruscha bo‘limda tamomladim, – deydi biz bilan suhbatda “Dunyo bo‘ylab” telekanali rejissyori Sergey Stopnevich. – Qariyb, 15 yildan buyon O‘zbekiston televideniyesida rejissyor bo‘lib faoliyat yuritib kelaman. O‘zbek tilini mukammal bilganim uchun o‘zbekcha ko‘rsatuvlarda ham qiynalmay ishlayman. O‘zbek tilini mahallamizdagi bolalardan o‘rganganman. Do‘stlarimning ko‘pchiligi o‘zbek. O‘zbeklarning urf-odatlarini ham juda hurmat qilaman. Ba’zan ish yuzasidan ko‘zga ko‘ringan, taniqli o‘zbek san’atkorlari, turli soha vakillari bilan suhbatlashib qolaman. Ishonasizmi, ularning ayrimlari o‘z ona tilini bilmaydi. Bilganlari esa, buzib gapiradi. Sababini so‘rasam “rus maktabida tahsil olganman”, deydi. “Siz rus bo‘lsangiz nega o‘zbekcha gapirasiz?” deya savolga ham tutishadi ba’zan. Men ularga qarab turib garchi millatim rus bo‘lsa-da, “Yo‘q, men o‘zbekman, asl o‘zbekistonlikman”, deyman. Nega ayrimlar o‘zbek bo‘la turib o‘z tilida so‘zlashmaydi? To‘g‘risi, bu savolga hali-hanuz javob topa olmadim.

Nasling, asling o‘zbek bo‘lsa-yu, o‘z tilingni bilmasang. Shu Vatanda yashasang-u, o‘zga tilda so‘zlasang? Bu – tilga hurmatsizlik emasmi? Oilaliman, bitta farzandim bor, farzandimga ham o‘zbekcha gapiraman, ayolim o‘zbek tiliga tushunadi-yu, hali unchalik yaxshi gapira olmaydi. O‘zbekistonda tug‘ilgansan, shu yerda yashayapsan. Demak, o‘zbek tilida sof gapirishni bilishing, xalq urf-odatlarini hurmat qilishing kerak, deyman rafiqamga ham. Onam hozir nafaqadalar. Ular ham o‘zbek tilida juda yaxshi gapiradilar”.

Sergey Stopnevich bilan gaplashar ekanman, ko‘nglim o‘zgacha bir g‘ururga to‘ldi. Uning milliyligimizga sadoqatini, shu muqaddas Vatanimizga mehrini, bobomiz Navoiy g‘azallarini yodlab, zavq bilan o‘qishini elimizga, tilimizga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtirom deb tushundim.

Zero, O‘zbekistonday jannat diyorda ulg‘ayib kamolga yetgan rus o‘g‘lonining ona tilimizga, e’tiqodini, o‘zbekligini tan olmay, o‘zligidan kechib borayotgan ba’zi bir yurtdoshlarimizga ibrat ko‘zgusi qilib ko‘rsatish shart va lozim ekanligini teranroq angladim.

Zarnigor IBRAGIMOVA

“DUNYO YANGI NAVOIY VA XORAZMIYLARNI KUTMOQDA...”

Boshlanishi 1-sahifada.

Buyuk bobomiz nomida ta’sis etilgan mukofot zamonamiz ilm va san’at ahlini ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, insoniyat manfaati uchun yanada ko‘proq ishlashga undaydigan munosib bir tashabbus, deb hisoblayman. Bu mukofot Alisher Navoiyning barcha orzu-istaklarini, bugungi turkiy davlatlarning ezgu maqsadlarini o‘zida mujassam etgan bir timsoldir. Mening kamtarona xizmatlarim ulug‘ dahoning muborak nomi bilan atalgan mukofotga munosib ko‘rilganidan ko‘nglimda cheksiz faxr hissini tuydim.

Fursatdan foydalanib, bunday yuksak e’tirof uchun mir Alisher Navoiy nomini xalqaro maydonga olib chiqqan, O‘zbekistonda ulkan taraqqiyot va o‘zgarishlarni amalga oshirayotgan Prezident Shavkat Mirziyoyev janobi oliylariga, Turkiy davlatlar tashkilotiga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

– Ayting-chi, Alisher Navoiy mukofoti turk dunyosining o‘ziga xos Nobel mukofoti bo‘la oladimi?

– Ha, dunyo uchun bunday mukofot kerak. Lekin uni Nobel mukofoti bilan qiyoslash, menimcha, unchalik to‘g‘ri bo‘lmas. Navoiyning mavqeyi naqadar yuksak bo‘lsa, uning tabarruk nomi bilan atalgan mukofotning nufuzi ham shu qadar balanddir. Bugun turkiy xalqlar o‘z o‘tmishida bo‘lgani kabi yorug‘ kelajakka olib boradigan ulkan, olis va mashaqqatli yo‘lning boshida turibdi. Bu yo‘lni sharaf bilan bosib o‘tmoq uchun avvalo biz, ziyolilar – shoir va yozuvchilar, olimlar va muallimlar o‘z millati va davlatining ilgarigidek jahonning eng peshqadam mamlakatlari qatoridan o‘rin olishi, yuksak taraqqiy etgan madaniyat va tamaddunga erishishi uchun birlashuvi, astoydil mehnat qilishlari kerak.

Hozirgi kunda dunyoning turli burchaklarida va o‘z yurtlarida ayni shu maqsad bilan sidqidildan mehnat qilayotgan yuz minglab yosh va g‘ayratli vatandoshlarimiz, millatdoshlarimiz bor. Ularning orasidan ma’lum natijalarga erishgan va jahonda e’tirof etilgan iste’dod egalarini topish, xizmatlarini qadrlash va boshqalarni bu ezgu yo‘lda rag‘batlantirish uchun ham Alisher Navoiy nomi bilan atalgan mukofotni xuddi Nobel mukofotining kabi adabiyot, san’at, fan va texnologiya sohalariga ham tatbiq etilishi har jihatdan to‘g‘ri, deb o‘ylayman. Bu mukofot birinchi navbatda insonning fidoyiligi, vatanparvarligi, go‘zal axloqi, o‘z xalqi va bashariyatga xizmat qilish baxtining ulug‘vor ramzi sifatida, albatta, keng e’tirof etilishiga aminman.

– Muhtaram ustoz, “Jadid” gazetasi o‘quvchilariga tilaklaringiz?

– 2018-yilda O‘zbekistonga ilk marta borganimda janob Prezident Shavkat Mirziyoyev nafaqat o‘zbek yoshlariga, balki butun dunyoga qarata “Najot – ilmdadir”, degan teran ma’noli mujdani berganiga guvoh bo‘lgan edim. Men bir olim sifatida bu fikrni chin dildan qo‘llab-quvvatlayman va yoshlarimizning, darhaqiqat, najot faqatgina bilimda, ta’lim va tarbiyada ekanligini chuqur anglashlarini istayman. Chunki bugun dunyo yangi Navoiy va Xorazmiylarni, Ulug‘bek va Buxoriylarni intizorlik bilan kutmoqda.

Millatimizning gultoji bo‘lgan iqtidorli yoshlarimizning hozirgi kunda oltindan, olmosdan ham qimmat vaqtlarini behuda sarflashga aslo haqlari yo‘q. Umrning qaytmas har bir daqiqasini ilm-ma’rifat olishga, kasb-hunar egallashga baxsh etishi kerak. Bu tartibda ishlash va ta’lim olish farzandlarimiz, yosh nasllarimiz uchun kundalik turmush tarziga aylanishi zarur. Bugun strategik fikrlash ular egallashi lozim bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalardan biridir.

– Qadrli domla, Sizni yuksak mukofot bilan yana bir bor qutlab, O‘zbekiston zaminida kutib qolamiz.

Zaynobiddin ABDIRASHIDOV suhbatlashdi.

YANGI NASHR



Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonga rasmiy tashrifi davomida ozarbayjonlik adabiyotshunos va shoir Akif Bag‘irovni qabul qildi.

MUQADDAS BURCH

Azalp taxallusi bilan tanilgan shoir Akif Bag‘irov Nahichevanda tug‘ilgan, ammo taqdir taqozosi bilan uzoq muddat O‘zbekistonda yashab, ijod qilgan. Ozarbayjon xalqini o‘zbek adabiy muhiti bilan yaqindan oshno qilishda fidoyilik ko‘rsatib kelmoqda. Shoir ko‘plab o‘zbek ijodkorlarining asarlarini ozarbayjon tiliga o‘girgan. U xalqimizning shonli tarixi va O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yutuqlari, shu jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlardan ilhomlanib yozilgan “O‘zbek kelayotir” qasidasi bilan ham mashhurdir.

Uchrashuvda Akif Bag‘irov yuksak hurmat va minnatdorlik ramzi sifatida Prezidentimizga o‘zi ozarbayjon tilida tayyorlagan “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobini taqdim etarkan, o‘z hissiyotlarini shunday bayon qildi:

– Bu kitobni tarjimon sifatida sizga yetkazishni burchim deb bildim. Shuni aytishim kerakki, muhtaram janob Prezident, ushbu kitobning chop etilishida Ozarbayjon ziyolilari tashabbus ko‘rsatgan. Ozarbayjon ziyolilarining orzu-istaklarini aynan yetkazyapman sizga. Sizning ma’naviyat bilan, ma’rifat bilan, yurtning o‘tmishi bilan bog‘liq chiqishlaringiz joy olgan ushbu kitobning chop etilishini ko‘plab ziyolilarimiz intiq kutishdi. Muhtaram janob Prezident, toki jonimda jon bor ekan, O‘zbekistonni ham, Ozarbayjonni ham, jumladan, ikki xalqning qarindoshligini, do‘stligini, tinch-totuvligini kuylashni o‘zimning muqaddas burchim deb bilaman.

O‘z muxbirimiz

E’TIROZ



UYATSIZLARDAN UYAT!

Nafaqaga chiqqaningdan keyin ermaging “zangori ekran” bo‘lib qolar ekan. Qolaversa, kechki ovqat payti oilaviy televizor tomosha qilishning gashti boshqacha. Bir paytlar “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Navoiy”, “Yulduzli tunlar” seriallarini butun oila jamuljam bo‘lib ko‘rganmiz, o‘zaro mulohaza yuritganmiz.

Lekin keyingi paytlarda odam televizor murvatini burashga ham qo‘rqib qoldi. Qo‘yasan, bolalaring, ayniqsa, kelinlaring oldida uyalib qolasan. Shu seriallarni yozgan, sahnalashtirgan “ijodkor”larning o‘zlari ham oila davrasida ko‘ra olisharmikin o‘z mahsulotlarini yo o‘zi yemagan oshni boshqaga ulasharmikin? Telekanal rahbarlari-chi? Shu betayin, maza-matrasiz joylarini bemalol tomosha qila olarmikin? O‘ylashimcha, unday lavozimlarda o‘tiradiganlarning saviyasi, didi menday oddiy o‘qituvchilikdan nafaqaga chiqqan tomoshabinnikidan ancha baland bo‘lishi kerak.

Xullas, ko‘rib bo‘lmay qoldi televizorni. Nabiralardan uyat. Lekin nima qilaylik? Kech bo‘lganda birovnikiga chiqolmasang gaplashib o‘tiraman deb. Televideniyega talabimiz bor: tartibga olsin! Nazorat o‘rnatsin! Badiiy kengashlari bor bo‘lib, uxlab-puxlab qolgan bo‘lsa, uyg‘otsin! Yo‘q bo‘lsa, tuzsin! Qancha farosatli, jonkuyar ziyolilarimiz bor, efirga chiqarishdan oldin bir ko‘rsatib olishsa, ana o‘shalar tasdiqlab bergan seriallarni chiqarishsa, biz keksalarni bola-chaqamizning oldida o‘sal bo‘lib o‘tirishdan qutqarishar edi. Tarbiyaviy, tarixiy seriallar ishlasin rejissyorlarimiz ko‘proq. Ko‘rib, e, padaringga qusur, demaylik. Madaniy hordiq olaylik.

Bahrom NURMUHAMEDOV,
Mehnat faxriysi
Toshkent shahri

KENGASHLI TO‘Y TARQAMAS. KENGASHLI TV-CHI?



Boshlanishi 1-sahifada.

Bugun barchamiz ham shu ekran qarshisida kunimizning ma’lum qismini o‘tkazamiz. Yoshligimizning bir kundagi ikki, nari borsa uch soatinigina “oyinayi jahon” qarshisida o‘tkazib, qancha narsaga erishdig-u, bugungi yuzlab kanallarning kun bo‘yi ishlayotganini nazarda tutsak, qancha ta’sir qabul qilyapmiz? Buni tasavvur qilolasizmi?!

O‘ylab ko‘ring-a, birgina yurtimizning o‘zida qancha telekanallar betin ishlayapti. Ha, betin va ayni damda aksari betizgin ishlayapti... Shunisi eng katta muammo. Mayli, davlat televideniyelarining-ku bir yo‘rig‘i bor. Lekin xususiy deb nom qozongan va xususiylikni erkinlik, erkinlikni betizginlikka vaj qilib o‘z ishini “eplab” kelayotgan kanallarimizga “Hoy, nima qilyapsan?!” deydigan topilmay qoldiyov, nazarimda. Bu borada “misol uchun” deb bir boshidan sanab ketish mumkin. Lekin sanoqdan charchaysiz. Kunning istalgan vaqtida ekraningizni yoqing, sal bo‘lsa-da ong-u shuuri bor odamning ko‘nglini og‘ritadigan dasturlar to‘lib-toshganiga guvoh bo‘lasiz.

So‘zimiz boshida jamiyat so‘zini bekorga takror-takror ishlatmadik. Teledastur jamiyat ichida tarqaydi va unga bevosita ta’sir o‘tkazadi. U xohlaylik-xohlamaylik aholining turli qatlamida, ya’ni “vijir-vijirlabgina” so‘z o‘rganayotgan murg‘ak boladan tortib, keksayib vidosini aytayotgangayam aql o‘rgatuvchi vosita. Masalani ohanjamo ifodalarsiz o‘rtaga tashlay qolaylik: jamiyat asrlar davomida hayot sinovlaridan o‘tkazib qabul qilgan umummanfaatli qoidalarning teskarisini targ‘ib qilishga kimning haqqi bor? Kimning huquqi kafolatliki, ekranga chiqib davlat tilining oyog‘ini osmondan keltirib “so‘zamollik” qilishga? Nima haqqi borki, qaynota bilan kelinni sevishtirib, kelajakning betini qotirishga? Nima uchun o‘z haminqadar saviyasiga boshqalarni moslashtirishi kerak? Qo‘shiq ekan, serial ekan deb asrlar ortida yaratilgan va bugungi asl durdonalarimizning ham saviyasiga o‘zga yurt, o‘zga millatlar nazdida shubha paydo qilishga kimdir haqlimi?

Ekranlarimiz qarshisida o‘tirib qolgan qaysi xorijlik bizning asl darajamizni anglayapti ekan bu serial-u shoulardan. Ha, serial kerak, shousiyam bor bo‘lsin, mayli. Ammo... Nega serialning qolipini (ssenariy demayman) xorijning, xorij bo‘lgandayam bizga bir tukiyam o‘xshamaydigan g‘arbning “namuna”laridan olamiz? O‘z shou namunalarimiz yo‘qmidi?! Bor! Axir tadbirlarda karnay-surnay chalib jar solish, turli xalq o‘yinlari shou emasmidi?

To‘g‘ri, har bir telekanalning o‘z maqsadi bor. Ayniqsa, xususiylarining bosh maqsadi – mablag‘! Busiz shu telekanalning faoliyatiga ham nuqta qo‘yiladi. Ammo tanganing ikkinchi tomoniyam bor-ku? Ikkinchi tomonda jamiyat hayoti, insonlar ma’naviyati, xalqimiz qadriyati, yoshlar tarbiyasi turibdi.

“Xo‘sh, gapni aylantirib senzura amaliyotiga qaytishga taqayapmizmi?” Shunday savol tug‘iladi, albatta. Zotan, bu shubhaga asos yasab so‘zim avvalida tizginlashga ishora berib qo‘ydim. Bahslashishga tayyorman bu borada. Tizgin kerak. Betizginlik hech davrda hech bir jamiyatga, hech bir xalqqa, hech bir davlatga baraka keltirmagan. Bahsga asos bor. Bunday betizginlik oqibatidan jamiyat hamiyati, yurtdoshlar, millatdoshlar ma’naviy darajasi bus-butunligicha moliyaviy yutuq evaziga garovga qo‘yib yuboriladi. Buning uchun nafaqat bahslashish, balki bu negativ vaziyatga qarshi choralar taklif qilishga haqlimiz.

Shunday choralardan biri sifatida dastavvaliga barcha telekanallarda Jamoatchilik Kengashi tuzish zaruriyati borligini qayd etgan bo‘lardik. Xoh u davlat telekanali bo‘lsin, xoh xususiy bo‘lsin (zotan, barchasining jamiyatga ta’siri bir xil) shu Kengash (u “kengash” deb ataladimi, boshqachami, ahamiyati yo‘q) talablarini bajarsin.

O‘rinli savollarga javob Kengash nizomida aks etishi zarur. Ya’nikim, kengash serial yoki ko‘rsatuvning, hatto musiqaning shu janr, jamiyat qonunlari talablarini bajara olish darajasiga baho beradi, xolos. Shuning uchun Kengash a’zolari tarkibiga, shubhasiz, tanilgan va tan olingan kino mutaxassisi, yozuvchi yo shoir, aktyor, san’atkor va boshqa kasb vakillari, jamoatchi faollar kiritilishi mumkin.

Bilmadim, balki har bir televideniyening o‘zida bunday vazifani bajaruvchi kengashmi yo boshqa bir tarkib bordir. Ular o‘z yo‘liga. Ichki sharoitdan kelib chiqib ishlayverishsin. Ammo o‘z ichingdagi o‘z manfaating, xususan, moddiy manfaatlaring tizginida maqsaddan chekinishing naqd gap. Zotan, gap umummilliy manfaatlar haqida ketmoqda.

Chori LATIPOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

OG‘RIQ

BIZNI QAYOQQA YETAKLASHYAPTI?



Televizorda namoyish etilayotgan saviyasiz seriallar haqida tashvishlanib ko‘p bora bong urildi. Ammo shunday masala ham borki, televizorda efirga berilmayotgan narsalar ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilyapti. Hattoki platformalar uchun maxsus seriallar ishlanyapti. Taassufki, ularni tomoshabini televideniyenikidan anchagina ko‘p. Jamoatchilik qoralagan seriallarni ham internet orqali tomosha qilish imkonini topishmoqda. Bu kabi seriallar inson ruhiyati, yoshlar tarbiyasiga, ayollar dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Shu bilan birga insoniyatni ma’naviy qashshoqlashtirib, fikrlashdan uzoqlashtiradi.

> **Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga aylanolmaydi. Ammo inson uyatini yo‘qotib, hayvonga aylanishi mumkin.**
>
> **Abdulla QAHHOR**





Bugungi yoshlar (asosan, qizlar) internet tarmoqlarida serial ko‘rishni (hobbi) qiziqarli mashg‘ulotiga aylantirib olishgan. Metro yoki avtobuslarda, xiyobonlarda o‘tirib yoki uylarida yonboshlab soatlab serial tomosha qilishga odatlanishgan. O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, o‘n-o‘n to‘qqiz yoshli qizlar koreys dramalarining, yigirma-yigirma besh yoshlilar esa turk seriallarining ishqibozi ekanligi ayon bo‘ldi. Mazkur raqamlarni shunchaki yozmadik, ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari soni, seriallar ostidagi izohlardan kelib chiqib shu to‘xtamga keldik.

Nodavlat telekanallarda avj olgan ba’zi saviyasiz telenovella va seriallarni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish orqali tomoshabinga “qarmoq” tashlanmoqda. Masalan, “Sevimli” kanalining “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasiga “Singlim” serialidan parcha joylangan. Tarmoq foydalanuvchilarini jalb qilish uchun ushbu parchaga “Endi Azizning mehri qaynonasiga oshib ketdi”, deb yozilgan. Shu post tagidagi izohlarga e’tibor qaratdik: “Yoqimsiz kino. Singil o‘z opasini eriga ham osiladimi? Umuman, o‘zbekligimiz yig‘ladi”, deb izoh bildirgan Feruza Yo‘ldosheva. Fikrlar orasida shunga o‘xshash e’tirozlar talaygina.



Biroq telekanal tomonidan bitilgan ifodani shunchaki kulgiga olganlar ham anchagina edi.

“Kelin nega o‘z to‘yidan qochdi?” deb nomlangan yana bir telenovella ko‘pchilikning diqqatini tortgan. 2404 ta yoqtirma (layk) bosilgan. Serial reklamasida “Bizga plyus belgisini qoldiring va biz sizga ushbu telenovellani YouTube kanalida ko‘rish imkonini beruvchi havola yuboramiz”, deb yozib qo‘yilgan. Izohlarda esa besh yuzdan ko‘p ayol-u erkak “+” belgisini qoldirganini ko‘rish mumkin. Mana, marketingning yana bir tuzog‘i.

Bugun yosh qizlarning hayosi, ibosi haqida gapirar ekanmiz, nahotki mana shu kabi saviyasiz serial va novellalarning ta’siri haqida o‘ylamaymiz? Ular bizni qayoqqa boshlayapti? Ijtimoiy tarmoqlarda “falon joyda yangi muzey ochildi, falonchi yozuvchining yangi kitobi nashr etildi” kabi xabarlar uchun buncha layk va izoh berilmaydi. Ammo yuqoridagidek mavzudagi seriallarga odamlar erinmay izoh yozadi, muhokama qiladi, ko‘rishga intiqadi. Mana shuning o‘zi jaholat botqog‘i emasmi?

“Milliy TV” telekanalining “Instagram” ijtimoiy tarmoq sahifasida quyidagicha so‘rovnomaga ko‘zimiz tushdi: “Qaysi serialni muntazam tomosha qilyapsiz?” murojaati ostida kun davomida efirga uzatilayotgan seriallar ketma-ketligi berilgan. “Bahar”, “Sensiz 3”, “Baxt ovchisi 4”, “Yig‘lagan qizlar 3”, “Boyxonim 2” deya yozilgan. So‘rovnoma tagidagi 125 ta izoh orasidan “Bahar” serialini kechqurun qo‘yinglar, kelinlarim ish bilan band bo‘lib ko‘ra olmayapti”, “Bitta “Bahar” seriali tuzukroq, qolgan hammasi tupoycha, o‘zbek seriallari kamaysin, jonga tegdi bir xil mavzu”, “Man hammasini ko‘rvomman, hammasi zo‘r” kabi izoh yozib qoldirganlar talaygina.

Reklamalar orasida “Alfons. Baxt ovchisi” serialidan keltirilgan parchani ko‘rib xuddi izohlarda yozilganidek “ko‘nglim aynidi”. Oltmish yoshlardagi beva ayol o‘ttiz yoshlardagi jazmanini “ovqatlantirib” o‘tirgan tasviri “Milliy TV” kanalida berilayotganiga ishonish qiyin.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik tomonidan qayta-qayta ko‘tarilayotgan telekanallar qoshida badiiy kengashlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifini qo‘llab-quvvatlayman va ushbu kengash telekanallarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ham nazoratga olishi shartligini alohida ta’kidlayman.

Sanobar KENJAYEVA,
pedagog

TAHRIRIYATDAN:

Gazetamizni kuzatib borayotgan mushtariylarga yaxshi ma’lumki, biz yuqorida ko‘tarilgan og‘riqli masala yuzasidan seriyali turkum tanqidiy maqolalar chop etib, badiiy kengash zaruriyatini kun tartibiga qo‘yganmiz. E’lon qilingan maqolalardagi talab va takliflarga ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘zining xayrixoh ekanini bildirib, maktublar yo‘llashgan va qo‘ng‘iroqlar qilishgan.

Ammo ko‘tarilgan mavzuga bevosita daxldor bo‘lgan telekanallardan sado chiqmagach, “Ehtimol, ijodkor do‘stlarimizning gazeta o‘qishga vaqtlari bo‘lmayotgandir”, degan yaxshi gumonda o‘sha maqolalarni ilova qilib, (masalan, joriy yilning 7-may kuni “Mening yurtim”, “Sevimli TV”, “Zo‘r TV” va “Milliy TV”) kabi telekanal rahbarlariga so‘rovnoma yuborgan edik.

Afsuski, yo‘llagan xatimizni ham o‘qishga fursat topisholmadi chog‘i, yana “lom-mim” deyishmadi. Noumid – shayton. Bu gal bevosita tomoshabinlarning mulohazalarini jamoatchilik e’tiboriga havola etyapmiz, koshki...

NIYAT, QAT’IYAT – MUVAFFAQIYAT

Boshlanishi 1-sahifada.

– Oydin O‘tamurodovna, avvalo, sizni ikkinchi bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganingiz bilan tabriklaymiz. Ma’lumki, amaldagi qonunlar ham xalq manfaati va taraqqiyot talablari nuqtayi nazaridan qayta ishlanib, takomillashtirib boriladi. O‘zgarishlar nafaqat qonunlarda, balki saylov jarayonlarida ham yuz ko‘rsatmoqda. Ayting-chi, sizning nazaringizda bu yilgi saylov oldingilaridan nimasi bilan farqlandi?

– Tabrik uchun rahmat. Sir emaski, davlatimiz rivojlangan davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikka kirishdi. Hamma sohada rivojlanish jarayoni kechyapti. Shu bois bugun dunyo mamlakatlari O‘zbekistonga o‘zgacha qiziqish bilan qarayapti. Jumladan, bu galgi parlamentga saylov jarayonlariga ham xorijiy mamlakatlarda qiziqish ancha yuqori bo‘ldi. O‘tgan galgi mahalliy kengashlarga saylovda Xalqaro kuzatuv komissiyasidan demokratik saylovlarga erishish bo‘yicha 26 ta tavsiya olgan edik. Bu tavsiyalarning 19 tasi mana shu saylov jarayonlarida amaliyotga tatbiq qilindi. Bu esa saylovning yanada demokratik, ochiq va shaffof o‘tishini ta’minladi. Mojoritar va proporsional saylov tizimiga o‘tishimiz bizni xalq bilan yanayam yaqinlashtirdi.

Targ‘ibotga ruxsat etilgan kundan boshlab besh hafta davomida hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazib, yuzma-yuz, ochiq muloqot qildik. Mahallalar, xonadonlarga kirib bordik. Debatlarimiz jonli efirda to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyish qilindi. Jonli efirda yo bir og‘iz gap, yo bir lavha qirqib olinmaydi, buni o‘zingiz yaxshi bilasiz. Bu saylov deputatlikka nomzodlar va partiyalar o‘rtasida chinakam kurashga aylandi, deb ayta olaman. Jarayon talabi sabab biz ham boshqa nomzodlar va partiyalarning saylovoldi dasturlari bilan tanishib bordik. Bu esa o‘z navbatida, bir-birimizning dasturlarimizda ilgari surilgan masalalarga yondashuvimizni kuchaytirdi. Kerak joyda bir-birimizni tanqid qildik, kerak joyda o‘rgandik ham. Debatlar, uchrashuvlar, muloqotlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ham efirga uzatib turildi. Juda ko‘pchilik izoh yozdi. Bu – xalq orasida saylovga munosabat o‘zgarayotganini, yurtdoshlarimiz qonunchilik faoliyatiga befarq emasligini yana bir karra isbotladi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi saylov jarayonlari demokratik jihatdan taraqqiy etib borayotganiga guvoh bo‘ldim.

– Bu yilgi saylovlarda xalq tomonidan saylangan vakillik organlari deputatlarining qariyb qirq foizini ayollar tashkil etdi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishdan ko‘zlangan maqsad nima deb o‘ylaysiz?

– Ayol o‘z xonadonida oila a’zolaridan har birining dardini biladi, hammaning tashvishidan boxabar bo‘ladi. Erkak kishi ro‘zg‘orga nima kerakligini ham ayolidan so‘raydi. Jamiyatda ham shunday. Ya’ni, ayol ijtimoiy olamdan erkaklarga nisbatan ko‘proq xabardor. Bolalar va xotin-qizlar uchun qanday shart-sharoit kerakligi to‘g‘risida ayolga maslahat solmay bo‘lmaydi. Bir misol, Yevropada tug‘ilishning kamayib ketishi global muammoga aylana boshladi va bu masala ayol deputatlar tomonidan parlamentga olib chiqildi. Masalaga siyosiy yechim berildi va homilani abort qildirish taqiqlandi. Yoki Polsha parlamentida ishchi-xodimlar uchun ishxonalarda yaratilgan shart-sharoit qanaqa bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi qonun loyihasini ham ayol deputatlar ko‘tarib chiqdi.

Bizning qonunchiligimizda ham ayol deputatlarimizning takliflari bilan bir qator yangiliklar yuz berdi. Masalan, 2019-yilda ayollar va erkaklarning teng huquqliligi to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan edi. 2020–2024-yillar davomida ushbu qonun xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoyalash to‘g‘risidagi normalar bilan yanada boyitildi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun test imtihonlarida past ball to‘plagan iqtisodiy nochor abituriyentlarga imtiyozli tavsiyanomalar asosida o‘qishga kirish imkoniyatlari berildi. Tadbirkor ayollar uchun kreditlar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj ayollar uchun subsidiyalar... Bunday misollar juda ko‘p.

– Ba’zi davlatlarning maktab o‘quv dasturiga boshlang‘ich siyosiy tushunchalarni o‘rgatadigan darslar kiritilgan. Ularning hatto kichik yoshli o‘quvchilari davlatni qachon respublika deb atash mumkin yoki avtonom respublika deganda nima tushuniladi, logotip, gerb yoki bayroq xalqaro standartlarga javob berishi uchun qanday talablar borligi haqida biladi. Bizda esa bu savollarga hatto o‘qituvchilarning ayrimlari ham javob berolmaydi. Nima deb o‘ylaysiz, yangi avlodga siyosiy etikani bolaligidan o‘rgatib borish kerakdir balki?

– Fikringizga qo‘shilaman. Haqiqatan ham, deputatlarning aholi bilan uchrashuvlarida eng qiynaydigan masala odamlarning xalq vakili oldiga tushunib-tushunmay talab qo‘yishlaridir. Ko‘tariladigan masalalar bir oila doirasida emas, eng kamida bitta mahalla qamrovida bo‘lishi kerak aslida. Agar saylovchida siyosiy tarbiya shakllangan bo‘lsa, bu borada ham muammo bo‘lmaydi.

– Ijodkor erkinlikni xohlaydi, siyosat esa uyg‘oqlikni talab etadi. Siz taniqli kompozitorsiz. Qonunchilik faoliyati bilan andarmon bo‘lib, ijodni unutib qo‘ymayapsizmi?

– Parlament tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov, Halima Xudoyberdiyeva, Enaxon Siddiqova kabi taniqli shoir va yozuvchilarimiz deputat sifatida ham qizg‘in faoliyat olib borishgan. Lekin ularning hech biri ijoddan chetga chiqib qolmagan. Hozir ham Oliy Majlisda, mahalliy kengashlarda ijodkorlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, bu gal saylangan deputatlar tarkibining 35 foizi ilmiy darajaga ega ziyolilardan iborat. Safimizda taniqli adiblar, pedagoglar, atoqli professor-olimlar ham talaygina. Bu fakt o‘z navbatida, xalqimiz ko‘proq ilm va adabiyot vakillariga ishonch bog‘layotganligidan dalolatdir. XXI asr kishisi, albatta, har tomonlama yetuk bo‘lmog‘i lozim. Shu ma’noda, deputatlik mening ijodiy faoliyatimni cheklab qo‘ygani yo‘q. Aksincha, yangi asarlar yaratishimda qo‘l kelmoqda. Avvallari o‘z istagim doirasida ijod qilgan bo‘lsam, hozir xalqimizning talab va istaklarini ham hisobga olyapman. Ya’ni, endi ijod qamrovini yanada kengroq tutyapman.

O‘tgan galgi deputatlik faoliyatim davrida bir shogirdimning “Jaloliddin Manguberdi” baletini yozishiga rahbarlik qildim. Ushbu balet o‘tgan yili dekabr oxirida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining talabalari tomonidan sahnalashtirildi. Shu shogirdim yaqinda mening rahbarligimda “Usmon Nosir” dramasiga opera-oratoriya ham yozdi. Ayni kunlarda bu asar premyerasini o‘tkazish taraddudidamiz.

O‘zim qoraqalpoq teatri uchun “Qoraqalpoq” suyetasini yozdim. Va shu jarayonda qoraqalpoq musiqa madaniyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur o‘rgandim. Hozir simfonik orkestr uchun Amudaryo bilan bog‘liq xalq afsonasi asosida qoraqalpoq ohanglari bilan yangi musiqiy asar yozyapman. Bu ijodiy ishim ham yakuniga yetib qoldi.

– Siz Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ilk sovrindorlaridan birisiz. O‘tgan yillar davomida yana yuzlab iqtidorli qizlarimiz ushbu nufuzli mukofotga sazovor bo‘lishdi. Ammo bugun katta maydonda ularning ko‘pchiligi umuman ko‘rinmayotgandek. Nima deb o‘ylaysiz, mukofot egasi shu mavqega loyiq bo‘lganini hamisha isbotlab yashashi kerak emasmi?

– Men bu mukofotga yigirma besh yoshimda sazovor bo‘lgan edim. Ungacha meni “kompozitor”, “ijodkor”, “shaxs”, “ayol” kabi o‘z ideallarim tarbiyalab bo‘lgandi. Xalqimizning sevimli shoirasi Zulfiyaxonim ham meni g‘oyibona tarbiyalagan ana shu ideallardan biri bo‘lgan.

Shunday nufuzli mukofotning qadri bir-ikki sovrindor faoliyati bilan belgilanmasligi kerak, deb o‘ylayman. Zulfiya mukofoti sohibalariga nisbatan salbiy fikrlar yangrasa, dilim og‘riydi. Chunki men ham ulardan biriman, shu davraning boshidaman. Bu nomni oqlab yashash uchun o‘zimda hamisha mas’uliyat sezaman. Zulfiya nomidagi davlat mukofotining mavqeyini saqlab qolish bu nishonni ko‘ksiga taqqan har bir o‘zbek qizining vijdoniy burchi bo‘lishi kerak, deb hisoblayman.

– Qizaloq Oydinni professor, taniqli kompozitor, kamiga siyosiy arbob Oydin Abdullayeva darajasiga yetkazgan omil nima?

– Menimcha, qat’iyat. Bolaligimda bog‘chaga birov yetaklab borishini xohlamaganman. “O‘zim boraman”, deb xarxasha qilardim. Onam panapanalab ergashib borganlarini ko‘rib qolsam, o‘sha zahotiyoq ortimga qaytib, u kishidan uyga qaytishini talab qilardim. “Meni poylab yurmang”, deb eshikni qattiq yopib chiqib ketar edim. Qaysar qizcha bo‘lgan ekanman-da. To‘qqizinchi sinfda o‘qiyotganimda sinfdoshlarim bilan o‘g‘il bolachasiga urishganim esimda. Onam bilib qolib, juda qattiq koyigan. Onaginamning dashnomidan o‘zimga kelganman. O‘sha kundan boshlab o‘zimni o‘zim tarbiyaladim. Konservatoriyaga o‘qishga kirganimdan keyin yana yaxshi tomonga o‘zgardim. Faolligim oshdi. Maqolalar yoza boshladim. Yozganlarimni ko‘tarib tahririyatga, Ahmadjon Meliboyev, Gulchehra Umarova kabi ustoz jurnalistlar huzuriga borardim. Ular menga ko‘p zarur



maslahatlar bergan, yozganlarimni tahrirlab, gazetada chop etishgan. Tahririyatga borganimda bino ichkarisiga kiritishmasa, eshikbonlarni aldab bo‘lsa ham o‘tib ketardim. Qat’iyatim bo‘lgan, “Qanday bo‘lmasin tahririyatga kiraman”, degan maqsad qo‘yganman o‘zimga. Mana shu qat’iyat hayot yo‘lida menga juda asqatdi. Keyinchalik fe’limdagi bu xususiyatlar qatoriga sabr-toqatli bo‘lish ham qo‘shildi. Hozir odamlarni toqat bilan tinglayman, saylovchilarimning ma’qul-noma’qul talablariga vazminlik bilan qaray olaman.

2013-yilda “Adolat” partiyasiga a’zo bo‘ldim. 2014-yilda Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashiga deputat etib saylandim. Shahar kengashida katta ishtiyoq bilan faoliyat olib bordim. Keyinchalik Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodim qo‘yildi. Avvalgi faoliyatimda ikkita tuman miqyosida ishlagan bo‘lsam, hozir hududim kengaygan. Nomzodim ko‘rsatilgan 72-saylov okrugi 130 mahallani o‘z ichiga oladi. Kam emas, 371 mingdan ziyod saylovchining diqqat markazidaman. Endi to vakolatim tugagunigacha ular bilan birgaman, o‘z hayotimdan ko‘ra ko‘proq el tashvishi bilan yashayman.

Osmondan tushmaganman, qiyinchilik nimaligini bilaman. O‘sha so‘mkupon davrida, yo‘qchilikda talaba bo‘lganman. Glier nomli musiqa maktabida o‘qib yurgan kezlarimda internatda beriladigan nonni uyga ko‘tarib kelardim. Chunki o‘shanda do‘konlar bo‘mbo‘sh, non topish amrimahol bo‘lib qolgan edi. Musiqa maktabida uch nafar xonadosh qiz sovqotmaslik uchun krovatlarimizni birlashtirib, paltoga o‘ralgancha bir-birimizning pinjimizga suqilib yotganimiz hanuzgacha yodimda. Sharoit yo‘q, tongda uyqudan turib, muzday suvda yuz-qo‘lingni yuvishing kerak. Ertalabki badantarbiyadan so‘ng qo‘llarimiz ko‘karib, maktab hududini supurardik ham. Hozir odamlarning noliganini ko‘rsam, o‘sha kunlarni eslayman. Biz qiynalyapmiz deb o‘ylamagan ham ekanmiz o‘sha paytlarda.

Ota-onam o‘qishimizga juda jiddiy e’tibor qaratgan. Butun o‘quvchilik davrimda bir martagina “4” baho olganman. Shu kuni onam rosa yig‘lagan. Past baho olganimga yig‘lagan-lari uchun vijdonim ezilgan. O‘zim ham ertalabgacha ho‘ngrab chiqqanman. Bilimli bo‘lishimiz uchun oilada qo‘yilgan talab shu darajada kuchli edi. Ehtimol ana shu talab meni bugungi darajaga yetkazgandir...

– Deputat – xalq va hukumat o‘rtasida elchidir. U taraqqiyot va ezgulik uchun adl turmog‘i kerak. Sizga ana shunday mashaqqatli va sharafli vazifada kuch-quvvat tilaymiz. Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Muhayyo PIRNAFASOVA suhbatlashdi.

ZARDA

Eng avvalida tuyg‘u ko‘ngilni tebratdi, ko‘ngil fikrni tebratdi, fikr qo‘lni tebratdi, qo‘l qalamni tebratdi, keyin she’r paydo bo‘ldi! She’r esa ilhomni tebratdi, ilhom ovozni tebratdi, ovoz dutorni tebratdi. Uning kuyini tinglaganlar mast bo‘lib, boshini tebratdi.

Alqissa, kun yetdi, baxshi olamdan o‘tdi. Uning firog‘i dunyoni tutdi. Yaxshilardan biri: “Shoirni tez-tez eslab tursak, o‘zi yashagan hovlida uy-muzey qursak, nima deysan, o‘n ming uyli qarindosh”, dedi? Teng-u to‘sh, qavm-u xesh, eldosh-u yurtdosh avvali xo‘sh dedi, keyini xush dedi! Hukumat bizdan bitta farmoyish dedi! Muzey 2023-yilning dekabr oyida ochilishi lozim edi. Mas’ullar mastmidi yoki shashti pastmidi, shugina ishning ijrosi tuya go‘sht yedi.



“KO‘NGLIMDA ARMON YOTAR TERSKAYDAGI QOR MISOL...”

yoxud To‘ra Sulaymon uy-muzeyi tashvishida bir so‘z

Sirdaryo viloyati hokimligining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi buyurtmachi tashkilot bo‘lgan. Bu ishni “Boyovutlik Islombek trans” MChJ tenderda yutib olgan. Pul kechikkan, ish qolgan, qor yog‘gan.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi Azamat Xatamov chizgan eskiz tanlovda g‘olib edi. Uni yasashga mablag‘ berilmay turgani uchun haykaltarosh o‘yga tolib edi, ijod kuzga qolib edi. O‘lmagan qul kuzga yetdi, ishlar yurishib ketdi. Rahbar pulni tebratdi, pul ustani tebratdi, usta randani tebratdi. Ishboshi hushyor bo‘ldi, imorat tayyor bo‘ldi. Lekin shuncha tevalash bilan ham tepsa-tebranmaydigan tashkilotlar sababli muzey eksponatlarini bag‘riga oluvchi buyumlar haligacha yetib kelmadi. Biz muxlislar “muzey qachon bitadi” deb yugurmagan idoramiz qolmadi. Mas’ullar o‘rindig‘ini tebratib-tebratib, jilmaydi-yu, jilmadi. Shularni tezroq tebratib beradigan odam kerak, kutubxonaga kitob, ijodxonaga gilam kerak.

Biz-ku mayli, uch mingdan oshiq eksponat muzeyga mahtal. Shuginalar issiq o‘ringa kirsin-da qishdan avval. Bir uyumining hozirgi manzili – Baxmal. Tag‘in Guliston davlat universitetida bir uyuri, Sirdaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyida bir tuyuri. Shu ishlar tezlab ketsa, guldek muzey bitsa, jonimiz nisor! O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon haykali, ijodining paykali, kitoblari, buyumlari, anorlari, uzumlari, choponlari, dostonlari bir manzilda jam bo‘lsa, xotirimiz jam bo‘lsa... Ana undan keyin maqtoviga men bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon.

Shunga endi kim bo‘lar bosh-qosh, maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh.

Arznomani men bitdim oxir,
Yig‘lay-yig‘lay, tugatdim oxir...

Shahriyor SHAVKAT

G‘URUR



ZAMAXSHARIYNING “YORDAMI”

ABDURASHIDNING AYTGANLARI

Misrda o‘qib yurgan kezlarim edi. Bir kuni uchoqqa chipta olish uchun boshi-oxiri ko‘rinmaydigan uzun navbatga turdim. Ko‘p kutdim. Saf imillaydi; vaqtim nihoyatda ziq. Chiptadan ham muhimroq ishim – bir saboqdoshimga va’da-qarzim bor. Borishim shart. Qolaversa, chiptaxona darichasining tagiga yetib-yetmay quruq ortga qaytish ham kishiga alam qiladi.

Mahalliy xalq tilini yaxshi bilaman. Oldimda turgan o‘n-o‘n besh chog‘li kishiga holimni tushuntirib, iltimos qildim, birov “Kimsan?” demaydi. To‘ng‘illaydi, xolos. Shu payt bir tadbir xayolimga keldi. Musofir ekanimni ayta turib: “Hoy azizlar, men Zamaxshariyning yurtidan kelganman, talabaman, yordam beringlar”, dedim. Saf birdan sergak tortdi. Bir-biriga ma’noli qaragan odamlar o‘zaro pichirlasha boshlagan ham ediki, chiptaxona darichasidan: “Hoy yigit, Zamaxshariyning yurtdoshi, beri kel”, degan ovoz eshitildi. Yugurib oldinga o‘tdim. Chiptachi: “Yo Alloh! Yo Alloh! Kecha kechqurun allomaning “Maqomot”ini bir varaqlagan edim-a. Bugun seni ko‘rib turibman!” dedi xush tabassum va taajjub bilan. Darrov chipta haqini to‘lab, rahmat aytdim-da, va’daga shoshildim.

Sohiba KARIMOVA

DOLZARB MAVZU

HAYOT SHAMCHIROG‘I

– Bor ekan-da yo‘q ekan, yo‘q ekan-da bor ekan, – buvim har safar shunday deb ko‘zlariga yosh olar va ancha muddat unsiz yig‘lardi. Biz esa jimgina boshqa xona yoki hovliga chiqardik. Onam buving yig‘laganda sababini so‘rama, degan. Baribir bir kuni buvimni savolga tutdim:

– Siz ertak boshlayapsiz, deb o‘ylardim, lekin qarasam, yig‘layotgan bo‘lasiz. Nimaga har safar ertakni boshlamasdan yig‘laysiz?

– Yo‘qdan bor bo‘lib, bordan yo‘q bo‘lamiz. Kunning chiqishi bilan botishining o‘zi ertak, bolam... Bir tutam kunning o‘zida ne-ne sinoatlar bo‘ladi – ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqealar...

Yillarki, shu suhbat quloqlarim ostida takrorlanaveradi. Qariyalarning ovozi esa buvimni eslataveradi. Hazin kuz shabadasi – so‘nggi yo‘lning kuzatuv marsiyasini chalayotganga o‘xshaydi. Quloqlarimga olov tafti oqib kirib, vujudimni alanga oldiradi.

Bunda – Keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazida guvoh bo‘lganim – ular o‘zlarini baxtli ko‘rsatib, diydiragan yuraklariga taft bermoq uchun sham ushlagan bedorlarga o‘xshaydi.

Rahbar ayol suhbatini shunday boshladi:

– Sakkiz yil avval shu yerda ish boshladim. Hali ellikka chiqqanim yo‘g‘-u, yuzdan oshib ketganga o‘xshayman. Qarishdan qo‘rqaman, deyman gohida. Xayolimda hamma bilan kurashaman. Dunyoda yechib bo‘lmaydigan jumboqlar borligini bilamiz-u, vaqtni benaf sarflab nimalargadir urinaveramiz. Hayotning tugamaydigan, oxiriga yetib bo‘lmaydigan jumboqlari o‘ylantirib qo‘yadi: kimgadir qaytar dunyo, kimgadir sinov, kimgadir anglab bo‘lmas o‘ylov! Qat-qat savollar girdobi inson o‘zini isloh qilishiga undaydi.

Turli taqdir, turli tabiat egalari. Munosabatlarning chigallashgan nuqtasini topmoqchi bo‘lgan adashadi. Avvalu oxir yechib bo‘lmas tugun! Donishmandlarning biri “begona uy – qorong‘i o‘rmon”, deydi. Xalqimizda yana bir gap bor: “Har kim o‘zidan o‘tganini o‘zi biladi”. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xulosaga shoshish – yana bir nojoiz qadam. Bu dargohga yaqinlarini olib kelgan kishilar, ayniqsa, taniqlilar sal o‘ng‘aysizlanib, kimdir tanib qolishidan cho‘chib turishadi. Shuning uchunmi juda kam, oyda bir marta pul to‘lashgagina kelishadi. Yoki biror tanishini yuborishadi. Alsgeymer – xotira yo‘qotishga chalinganlar bor. Lekin ana o‘shalar ham oilasini ko‘p eslashadi, ularni ko‘rgisi keladi. Yaqinlari esa ishlaridan, ro‘zg‘or tashvishlaridan “ortisholmaydi”.

Yoshligimda olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin, desa tushunmasdim. Endi anglab yetdimki, sohasida eng katta yutuqqa erishgan bo‘lsa-da, odamiylik chegarasi qayerda boshlanib, qayerda tugashini ajratolmaydiganlar afsuski, juda ko‘p uchrab turadi.

Birinchi taqdir. Bir san’atkorning umr yo‘ldoshi xotirasini yo‘qotgan. Uyida yong‘in chiqishiga sababchi bo‘lgan, keyin shu yerga olib kelishgan. Ayoli har hafta keladi, yig‘laydi. Farzandlari esa oylab kelmaydi. Tuzalib qolsa, albatta, olib ketaman, deydi. Bizlar – bu dargohda ishlaydiganlar har bir oilani tushunishga harakat qilamiz. Ammo imkoniyati juda katta bo‘lib ota-onalaridan xabar olmaydiganlarning ko‘pligi og‘riqli...

Ikkinchi taqdir. Eng yomoni, el oldida – minbarlarda mehr-oqibat, tarbiya haqida gapirib, o‘zining qilgan ishi elni g‘azablantiradiganlar. Televizorda ko‘rsang, gapini havas bilan eshitadigan ayol qaynonasini olib kelgan. Albatta, eri bilan birga. Birovga ozori tegmaydigan onaxon nima uchun uyiga sig‘may qoldiykin? Goh-goh o‘g‘il xabar olishga kelsa, kelin odamlar tanib qolishidan xijolat tortadi chog‘i ko‘zoynak taqib, eshik ortida turadi.



– Hamma ishda bo‘ladi. Uyda yolg‘iz qolganimdan ko‘ra shu yer ham afzal, – deydi ona farzandlarini oqlab. Ammo ovozidagi titroq ko‘p narsani gapirib qo‘yadi.

Uchinchi taqdir. Umrini butunlay ishiga baxsh etgan, adolat, haqiqat haqidagi filmlarning rejissyori oila qurmagan va bugun u ham shu yerdan qo‘nim topgan.

– Dunyoning men bormagan davlatlari kam, – faxr bilan so‘z boshlagan otaxon birdan jimib qoladi. – Yoshlik, umr juda-juda tez o‘tarkan. Hamisha oila qurishni paysalga soldim. Hayyo-huyt, deb o‘tdi davron. Oilaning o‘rnini hech qanday boylik, amal, martaba bosolmas ekan. Qarilik tuzalmas dardligini juda kech angladim. So‘nggi manzilga yaqinlaring kuzatishi, farzandlaring qo‘lidan bir siqim tuproq tushishi ham katta baxt ekan. Buni mening yoshimdagilar, mening holatimdagilar yaxshi bilishadi.

To‘rtinchi taqdir. Qaytar dunyo degan hikmat qatlarida ming yillik haqiqatni jamlagandek bo‘laveradi. Bir raqqosa – onasining yolg‘izgina farzandi edi. Xizmat safarlaridan ortolmagan qiz onaizorini shu yerga olib kelishga qaror qilgan. U ham birgina qizini enaga yollab katta qilgan, oyoqqa qo‘ygan. Kutilmaganda yigirmaga ham to‘lmagan qizgina onkologik kasallik bilan og‘riydi. Ona uyini sotib, davolatish uchun xorijga olib ketadi. Afsuski, jarrohlik amaliyoti kutilgan natijani bermaydi. Uyidan, farzandidan ayrilgan o‘sha ayol ham shu yerda – tasodifni qarangki, aynan onasi yillab yashagan xonaga joylashadi. Bu yerda volidasi bilan kechgan so‘nggi suhbatlarni tez-tez xotirlab, yum-yum yosh to‘kadi. Bu hikoyalarni eshitgan odamning yurak-bag‘ri tilka-pora bo‘ladi.

Beshinchi taqdir. Sakson yoshni qoralagan otaxon uyidan xabar kutardi. Farzandlari ham qo‘ng‘irog‘iga javob berishmasdi. Bir kuni tongda juda xursand ko‘rindi. O‘g‘li bilan gaplashganini, ikki-uch kunda olib ketaman, deganini aytdi. Bir hafta o‘tdi, otaxon ovqatlanishga ham chiqmay qo‘ydi. Narsalarini yig‘ishtirib olib, ko‘chaga termilib o‘tirardi. Avval o‘g‘liga telefon qildim.

– Ishim ko‘p, vaqtim yo‘q, bola chaqani boqish kerak, – dedi. – Keyin har oy otamning to‘rt millionini ham to‘lash mening yelkamda. To‘lov kuni uchib keladi. Olib ketolmayman.

Quloqlarimga qo‘rg‘oshin quyulgandek bo‘ldi. Xorijdagi qiziga telefon qildim.

– Uzoqda bo‘lsam, qanday boraman? Ana, o‘g‘illari qarasin, ularga o‘tkizib qo‘ygan-ku! Meni nomerimni qayerdan oldilaring?

U bilan gaplashish endi befoyda edi. Uyingizga boramiz, deb otaxonni ulovimga o‘tqizdim. Shahar aylantirdim, oshxonaga oborib, ko‘ngli tusagan ovqatlardan olib berdim. Xuddi kinolardagidek. Kayfiyati tamomila o‘zgardi. Xonaga qaytganda ko‘zlaridagi quvonchdan yuragim yorishib ketdi. Menga qarab:

– Kech bo‘lib qoldi, tezroq bolalaringizning oldiga boring, – deya qayta-qayta takrorladi. G‘alati bo‘lib ketdim, chunki bu yerdagi aksariyat ota-onalar xonam eshigini taqillatib, bolalaringizni oldiga shoshing, tezroq boring, deyishardi. Xayrlashib yo‘lga chiqdim. Xursand edim-u, yuragim yorishmasdi... Ertalab kelsam, otaxon hozirgina jon berganini aytishdi. O‘zimni kechirolmay qoldim. “Nimaga uyimga olib ketmadim? Nimaga? Qaynotam ham, bolalarimning otasi ham tushunardi-ku...” Ko‘z yoshim sel bo‘lib oqardi.

O‘g‘liga telefon qilsam, “vaqtim bo‘lganda o‘tarman”, dedi meni eshitmay. “Endi kech”, dedim. “Uyga olib kelolmayman axir, sharoitim yo‘q”, dedi pinagini ham buzmay. “Hech narsa kerakmas. Faqat kuzatishga kelsangiz bo‘ldi”, dedim. Qariyalar ota-onasi yoki farzandi yoniga – mozoriga qo‘yishni vasiyat qilishadi. Otaxonga bergan va’damizni ham bajardik. O‘g‘il hatto qiziqib so‘ramadi ham.

Marosim tugadi. O‘g‘il ertasiga sahar yetib kelib o‘lim guvohnomasi va yarim yil oldin olib kelgan “Tefal” choynagini so‘radi. G‘alati bo‘lib ketdim. Aksiga olib xonada o‘sha choynak yo‘q edi. Qo‘shni xonalardan so‘rab topdik, avaylab sumkasiga soldi. O‘g‘il degan nomga dog‘ emas, ildizni kuydiradigan o‘t tushirdi... Shundan ham battar edi qilayotganlari...

Oltinchi taqdir. Risolat aya ellik yoshgacha oila qurmagan. Keyin uch o‘g‘illi beva qolgan erkak bilan hayotini bog‘lagan. O‘n to‘qqiz yil shu xonadonning xizmatini qilgan, yotib qolgan erini yosh boladek avaylab qaragan. O‘g‘illari esa “ishdan ortolmagan”. Cholining vafotidan so‘ng o‘g‘illar hovlidagi eski uylarni buzib, qasrdek imorat tiklaydi va onaga shunday hashamatli qasrdan joy topilmaydi. Sarson bo‘lgan onaxon shu yerdan qo‘nim topadi. Bilasiz, bu yerda farzandi yo‘qlar ijtimoiy himoyalangan, ularga to‘lovlar yo‘q. O‘g‘il-qizlari bor ota-onalarning farzandlari esa to‘lov qilishlari kerak. Eng achinarlisi, bu onaxonga mahalla farzandi yo‘q degan ma’lumotnoma bermadi. Shuncha yil shu oilaning xizmatini qildi, otasiga qaradi. O‘g‘illarning imkoniyati yaxshi, to‘lovini qilsin, deyishdi qat’iy. Kunlar o‘tib onaxonning to‘lovi 40 milliondan oshib ketdi. Duogo‘y, tilidan bol tomadi, qanday qilib aytamiz? Yaxshiyam, himmatli, saxovatli insonlar bor. Shulardan biri – Sardor. Bu yerga tez-tez kelib turadi, qo‘lidan kelgancha ehtiyojmandlarga yordam beradi. Ikki-uch marotaba suhbatimiz shu ayol haqida bo‘ldi. Hojatbaror yigit hamma to‘lovlarini yopdi va:

– Opa, juda duogo‘y dedingiz, bir duolarini olib chiqaylik bo‘lmasa, – dedi.

Uni ayaning xonasiga boshladim. Kirdi-yu, ayaga qayta-qayta yer ostidan qarab qo‘ydi. Ko‘zi yoshlandimi, deraza tarafga qarab jimib qoldi. Keyin aya bilan biroz suhbatlashdi va ko‘zlari yorishib xonadan chiqdi. Yo‘lakda ketayotib bildimki, Sardor yig‘layotgan edi. Menga qarab, o‘ng‘aysizlandi.

– Risolat aya bolalikdagi qo‘shnimiz ekan. Taqdirini qarang. Oilasi oddiygina edi, ro‘zg‘ori ham. Lekin juda yaxshi insonlar bo‘lgan. Onam xastalanib qolgandi. Issiq ovqat tansiq edi. Aya har kuni onamni yo‘qlardi, bilardik o‘zining nasibasini onamga ilinardi. Imkoni haminqadar odam har kuni bir kosa ovqatni sovib qolmasin deb sochiqqa o‘rab olib chiqardi. Yana, go‘shti kamroq edi, orttirganim shu bo‘ldi, deb xijolat bo‘lishi bizni ajablantirardi. O‘shanda ham muloyim, duogo‘y edi. Katta bo‘lsam eng yaxshi ko‘rgan narsalarini olib beraman, derdim onamga. Achchiq sinovlar ortda qolib, oyoqqa turganimda Risolat ayani juda ko‘p esladim. Boshqa-boshqa joylarga ko‘chib ketgandik. Izlab-izlab esimdan chiqarganimda qarshimdan chiqqanining o‘zi ham bir hikmat. Endi qo‘limdan kelgancha to‘lovlarini qilib, xabar olib turaman, faqat ayaga bu haqda aytmanglar.

Suhbatimiz tugab, xayrlashdik. O‘ylanib qoldim, dunyo tarozusining posangisi hamisha ta’mirtalabmi? Mehr berib azobga, mehnat qilib tuhmatga tortilganlar qismatimi, deyman. Atrofga qarayman, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilishlar hayoti bir-bir ko‘z o‘ngimdan o‘tadi.

Birinchi taqdir. Ravshan kichkina tadbirkor edi. Otasi yetmishga yetganida xotirasini yo‘qotdi. Onasi, xotini qariyaga yaxshi qarov qildi. Lekin erkakning nazorati zarur bo‘ldi. Ravshan yagona boquvchi, ishlashi kerak. Otasi uchun o‘rta yosh bir kishini yolladi. Sahardan shomgacha, o‘g‘il ishdan kelguncha qaraydi. O‘g‘il ertalabgacha otasining yonida bo‘ladi. Shu taxlit o‘n yillar o‘tdi. Yigitning biznesi rivojlanib, oyoqqa turdi. Ota hushiga kelganda uzoqdan-uzoq duo qilardi: “Kamlik ko‘rmagin, bolam!”

– Unib-o‘sganlarning yo‘lini bersin, ishlaring barokatli, xayrli bo‘lsin! – onasining qo‘llari hamisha duoda edi.

Duoning ijobati oldida yashin tezligi ham hech narsa ekan. O‘ylaganidan ham barakali bo‘ldi topgani. Saxovatli insonlar qatorida elga ehson qiladiganlar qatorida bo‘ldi. Farzandlari ham unib-o‘sdi. Kami bo‘lmadi birortasining.

Ikkinchi taqdir. Er-xotin o‘sha kuni bir yengil tortishdi. Uch o‘g‘il, bir qizini joy-joyiga qo‘ydi.

– Endi o‘zimiz uchun yashaydigan kunlar keldi, onasi, – dedi er. – Mana, hammalari uy-joyli, bola-chaqali.

Bu suhbatga ikki kun ham o‘tmay, ayol yo‘lda ketayotib falokatga uchradi, voqea joyida hayot bilan vidolashdi. Endi ellikni to‘ldirgan er xastalanib qoldi. Farzandlari navbatma-navbat otaning yonida bo‘lishdi. Uch yil o‘tib, otani oila ko‘rmagan ayolga uylantirishdi. Farzandlar o‘z o‘rnini bildi. O‘n besh yil o‘tdi. Ota og‘irlashib qoldi. O‘g‘illarini yoniga chaqirib:

– Mendan keyin Masturaga shu hovlidan bir xona topilsa, qolsin, bo‘lmasa, ko‘zim ochiqligida javobini beray, – deya ko‘zlarini burchakka qadab jim qoldi. Jimlikni katta o‘g‘il buzdi:

– Qaysi birimiznikida turishni xohlasa, joy bor!

Ota dunyodan xotirjam ko‘z yumdi. O‘g‘illar Mastura opaning hurmatini joyiga qo‘ydi, umraga olib bordi, duolarini oldi. Boshlagan ishlari xayrli, barakatli bo‘ldi, ertaklardagidek murod-maqsadlariga yetdi.

Uchinchi taqdir. Bu ayol taniqli jurnalist edi. Tinib-tinchimas, etik kiyib dala kezadigan, qurilishga, shaxtaga kirib boradigan – xullaski, “Sinchalak” qahramonining o‘zginasi edi. O‘ttizidan o‘tib oila qurgan bo‘lsa-da, ko‘zlagan ishlarini qilishga ulgurdi, o‘g‘il-qizlari ham yurtning yuzi bo‘ldi. Oltmish besh yoshi arafasida yurolmay qoldi. Tibbiyot rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davolatishdi. Ozgina foyda berdi xolos. Kelin vazifasini bilgan, oqila, yaxshi tarbiya ko‘rgan. Ishidan, kasbi-koridan baraka topgan. Lekin qaynonaning xizmati hamma ishdan avval, degan temir qoidaga amal qilish kerak. Kelin bu ishni ham chiroyli joyiga qo‘ydi, qarindoshlaridan birini qarovga yolladi, maosh tayinladi. Hammasi ko‘ngildagidek bo‘ldi. Hamma xursand, ishidan ortishi bilan xabar olib turishadi. Duoning hikmati – oilaga baraka kirdi, topganlari o‘ylaganidan ham ziyoda bo‘ldi. Yillarki, tongda duoga qo‘l ochib, farzandlarini olamning eng huzurbaxsh so‘zlari bilan ishga kuzatadi.

To‘rtinchi taqdir. Bu ayol yetmishning ostonasida. Olti farzandning onasi. O‘zining ta’biri bilan aytganda, qarilikning erta yoqqan qirovlari mung‘aytirib qo‘ydi. Farzandlar o‘z kuni – o‘z ro‘zg‘orining egasi, o‘zidan ortib, hafta – o‘n kunda xabar oladi.

– Boladek bo‘lib qolarkan odam yosh qaytgan sayin, – deydi onaxon. – Ko‘ngil ham salga erib oqadi. Bolalarning qiy-chuvi og‘irlik qiladi, kattalar ishda. Hammaning yelkasida yuki bor, yelkalamasa yarim yo‘lda qoladi. Tushunishga harakat qilaman. Lekin faqat tengquri bilan gapi gapiga to‘g‘ri kelarkan-da odamning. Gohida bizday qariyalarga “Qariyalar uyi” tinchmi, degan o‘ylarga ham boramanu qo‘rqib ketaman. Noshukur bo‘lmay, bolalarimni isnodga qo‘ymay... Qancha umrim qoldi o‘zi...

Beshinchi taqdir.

– Oilamizda o‘n farzandning beshtasi o‘g‘il edi. Gohida onamga, hamma o‘g‘illaringizning uyida turing, sharoitlari yaxshi, derdim sinamoqqa.

– O‘tirgan uyim yaxshi, “rejimim” buziladi, – kulib qo‘yadi. – Dori-darmonim, tahoratim deganday...

Aslida hayotim shamchirog‘ini jigarlarimning uylaridan ham qizg‘anaman. Shukur, xo‘jayinim bag‘rikeng inson. Onamni o‘z onasidek ko‘radi. Akalarim ham oqibatli. Asalaridek to‘xtovsiz hovlimizga g‘iz-g‘iz qatnashadi. Katta oilamizda baraka, fayz timsoli bo‘lib onajonim qo‘r to‘kib o‘tiradilar.

Taqdirlar, taqdirlar... Birni ko‘rib fikr, birni ko‘rib shukur qiladigan hayot sinovlari... Taqdiri azalning bitiklarimi bu? Dunyoni o‘zgartirish mumkin bo‘lgan zamonda, odamni o‘zgartirish, ko‘ngilga yo‘l topish olamning tarozisi buzilgan posangiga tosh topish bilan barobarmi? Bu muhokama emas, aslo! Xulosaga zarradek tomizg‘idir, balki...

Yer sharining etagidan chiqadigan quyoshdan hamma barobar yorug‘lik, harorat kutadi. Ammo xasta qalbga tola nur tatimaydi. Nursiz go‘sha bo‘sh belanchakdek tebranadi... O‘tmish, biz bilgan va bilmagan xatolarimizning javobi yo jazosi, deyishga o‘ylantiradigan manzaralar...

Baxt nima o‘zi? Menimcha, keksaygan chog‘ingda farzandlaring xizmatingda qoyim tursa, seni qo‘ygani joy topolmasa, yeru ko‘kka ishonmasa... Ana shu tugal baxt emasmi?!

Dilfuza SHOMALIKOVA,
jurnalist

MULOHAZA



RIZQ ESHIGINING KALITI

Ko‘pni ko‘rgan, ma’rifatli insonlarning fikricha, barcha ne’matlar kaliti, eng avvalo, shukronalikdadir. Shukurda nechog‘lik katta, mo‘jizaviy kuch borligini inson hamisha ham his qilavermaydi. Darhaqiqat, bizga berilgan va berilayotgan barcha ne’matlarga shukur qilib yashashga odatlansak, hayotimiz farovon va sermazmun kechadi. Shukronalik bu – sog‘-salomat, o‘z uyingizda, oilangiz bag‘rida, tinch va osuda makonda Yaratganning berganiga qanoat qilib yashash demak.

Mustamlaka davrida millatimizning naqadar ezilganini, erkidan, haq-huquqidan judo bo‘lib, nochorlikda kun kechirganini ko‘pchilik yaxshi biladi. Ajabki, o‘sha kezlarda ham xalqimizning dilida shukronalik tuyg‘usi ustuvor bo‘lgan. Balki uni zamonlar silsilasidan eson-omon olib o‘tgan qudratli kuch ham shudir?

Bugun istiqlol tufayli hamma narsamiz bor, xohlasak o‘qib, xohlasak ishlab, xohlasak chet ellarda malaka oshirib qaytishimiz mumkin. Ba’zan men dilimning tub-tubida nomsiz og‘riqlar sezaman. Bu iztiroblar zamonning jadallashuvidanmi, farzandlarimizning, hatto o‘zimizning ham internet va virtual olamga qul bo‘lib borayotganimizdanmikan? Bu oqimni kim to‘xtata oladi? Xo‘sh, biz farzandlarimizga namuna bo‘la olamizmi? Ularga shukronalikni o‘rgata olamizmi? Shunday paytlar bo‘ladiki, tinch va osuda hayotga shukrona keltirmay, hayotidan nolib yashayotgan ayrim toifadagi olomonga qo‘shilib oqib borayotganimdan og‘rinaman.

Bugun dunyoning allaqaysi burchida davom etayotgan urushlarni, ayrim xalqlarning och-nochor ahvolda yurishlarini, qaysidir mintaqalarda tabiiy ofatlar avj olayotganini ko‘rib, yurtimizdagi farovonlik borasida mushohada qilishimiz joiz emasmikan?!

Xo‘sh, nega biz shuncha imkoniyatlarga qaramasdan yana nolishimiz kerak? Qarang, O‘zbekistonimizning har bir go‘shasi kundan-kunga chiroy ochmoqda. Qad rostlayotgan zamonaviy binolar, obod etilayotgan obidalar diyorimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda.

Bir paytlari o‘tgan allomalarning mangu qo‘nimgohlari qayerda joylashganini ham bilmasdik. Bugungi kunga kelib, har bir allomaning yashab o‘tgan manzillari va dafn qilingan joyi ziyoratgohga aylantirilmoqda. Kelajak avlodga ibrat bo‘lishi uchun ularning qoldirgan merosi chuqur o‘rganilmoqda, uy-muzeylari tashkil qilinib, sayohatlar uyushtirilmoqda. Bularning barchasi o‘sib kelayotgan avlodga bobokalonlarimizning naqadar buyukligini anglatish bilan bir qatorda, ularning munosib davomchisi bo‘lishlari lozimligini uqtirish uchun qilinayotir. Ajdodlarining ma’naviy merosini chuqur o‘rganish navqiron avlodning kelajakda komil inson bo‘lib yetishmog‘ida dasturilamal bo‘lib xizmat qilishiga hech shubha yo‘q.

Ayrim kishilar bilan suhbatda ularning noshukurlik qilib, “pulim yo‘q”, “mashinamiz yo‘q”, “oyligim kam” qabilida noliyotganliklariga guvoh bo‘lamiz. To‘rt muchasi sog‘ odam-ku u! Mashinasi yo‘qligi yoki maoshi kamligidan nolishi o‘rinlimi?

Hayotni ko‘p kuzataman. Insonlarni ham. Shunday oilalar borki, juda badavlat, ammo baxti yo‘q! Chunki ro‘zg‘orida halovat, topganida baraka kam. Shunday oilalar borki, biroz kamxarjroq hayot kechirsa-da, ularning xonadonida hamisha kulgi jaranglab, shodlik ufurib turadi. Chunki ularning dillarida shukrona bor!

Dilobar JO‘RAYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Olot tumani bo‘linmasi bosh mutaxassisi

O‘TMISHDAN SABOQLAR

QAMASHINI QURSHAGAN OLOV



Sobiq sovetlar tuzumi qatag‘on qilgan minglab kishilarning ayanchli taqdiri bizga yaxshi ma’lum. Bu qattol siyosatning ko‘rinishi respublikamizning chekka qishloqlarida ham sodir bo‘ldi. Jumladan, o‘tgan asrning 30–50-yillarida Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida ham nohaq ayblanib, jazolangan, otuvga hukm qilingan, yurtidan quvilgan millatdoshlarimiz ko‘p bo‘lgan. Qatag‘on mashinasi o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan kishilarni ham ayab o‘tirmadi. Bu sodda yurtdoshlarimizning ko‘pi sovetning yolg‘on siyosatiga uchib, uning “baxtli kelajak” haqidagi cho‘pchaklari targ‘iboti qurboni o‘laroq gul umrini xazon qilgani juda achinarlidir.

NODIR KOMANDIRNING “DUM”I

Qoratepalik Nodir Pardayev el-ulus orasida “Nodir komandir” deb nom olgan edi. Hatto akademik shoir G‘afur G‘ulom uning “jasorati va ibratli ishlari” haqida “Nodir komandir” nomli ocherk ham yozgan. Shuningdek, Sanchiqul qishlog‘ida yashab, Qoratepa qishloq sho‘rosiga raislik qilgan Mahmatqobil Avazov ham qatag‘onning begunoh qurboniga aylangan. Mahmatqobil boboning ayanchli qismati ikki qorako‘z qizlarini ota diydoriga zor qildi, ayolining mungli ko‘zlarini esa yor kelar yo‘llarga intizor etdi.

Ayniqsa, Sanchiqul qishlog‘idan akauka Abdusalom, Abdusattor va Abduvahob Suyunovlarning taqdiri o‘ta dahshatli. Ularning to‘qqiz kishidan iborat oilasi shimoliy Qozog‘iston dashtlariga badarg‘a qilingan. Faqat uzoq yillardan so‘ng bir oiladan birgina Jovli Suyunov qadrdon qishlog‘iga qaytib keladi. Jovli bobo O‘zbekiston xalq baxshisi, chiroqchilik Shomurod baxshi Tog‘ayevning oilasi bilan surgunda birga bo‘lgan va ular o‘sha og‘ir yillarda aka-uka tutingan.

– Onamning akasini Chorshanbi chavandoz deyisharkan. Katta to‘ylardagi ko‘pkarilar Chorshanbi chavandozsiz o‘tmas ekan. Sovet hukumati tog‘amni mol-mulki hisoblangan to‘rt-besh bosh qo‘y-echkisi, sigiri va oti borligi uchun quloq qilib, olis Sibirga haydagan. U kishiga yurtga qaytish nasib qilmagan, – deydi mehnat faxriysi Berdiqobil Xudoyqulov.

Bu jabrdiydalarning hammasiga “Nodir komandirning dumi” degan soxta ayb qo‘yilgan.

Insoniy huquq va erkinliklari poymol bo‘lganlardan yana biri Chim qishlog‘ilik Hazratqul Hakimov to‘g‘risida o‘g‘li Maksim Hakimov shunday hikoya qiladi:

– Otam 1889-yilda tug‘ilgan. Bobomiz Hakim ota Yusupov xat-savodli bo‘lgani bois o‘g‘illarini ham o‘qitgan. Otam dastlabki saboqni uyda olgan. So‘ngra Qarshi va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirgan. Keyinroq Chiroqchi tumanida revkom va sudya bo‘lib ishlagan. Otamni 1937-yil 10-dekabrda “Quloqning bolasi, inqilob dushmani” degan ayb bilan qamoqqa olishib, Kitob tumanidagi qamoqxonaga tashlashdi. Keyinchalik soxta ayblovlar bilan Sibirga surgun qilishdi. O‘sha paytlarda yosh bola edim, ulg‘ayib xat-savodli bo‘lgach, otam haqida ko‘p surishtirishlar, yozma so‘rovlar qildim. Va nihoyat javob xati ham keldi:

“...O‘zbekiston SSR, Qashqadaryo viloyati, Chim qishloq sovetida yashovchi Hakimov M.H ga.

Sizning yozgan arizangizga asosan shuni yozib ma’lum qilamizki, Hakimov Hazratqul NKVD UGB uchligining 1937-yil 10-dekabrdagi qaroriga ko‘ra aksilinqilobchilik harakatiga qo‘shilganligi uchun qamoqqa olingan.

“30-40 va 50-yillarning boshida repressiya qurbonlari bo‘lganlar bilan bog‘liq hujjatlarni o‘rganish va ularning nomini tiklash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi SSSR PVS farmoniga asosan 1994-yilda mas’ul prokuror u bilan bog‘liq jinoiy ish hujjatlarini ko‘rib chiqdi va oqlanganini ma’lum qiladi. KGB bo‘lim boshlig‘i. **S.Kamolov”.**

– Turmush qurganimga to‘rt yil bo‘lgan edi, – deb eslagan edi rahmatli Oyna momo Xudoyberdiyeva. – Tog‘alarim Nabi Sanayev, Jabbor, Hazratqul, Ovloqul Hakimovlarni “xalq dushmani” deb birin-ketin hibsga olishdi. Tog‘alarim bilan bir qatorda Abdurahmon Do‘stov, Salomatxon eshon O‘zbekov, Tilov Jo‘rayev ham qamaldi. O‘sha yillari bexosdan it hursa ham rangimiz o‘chib, qo‘rqqanimizdan dir-dir qaltirab qolardik. Chunki organ xodimining kelishidan yurak oldirgan edik-da... Buyam yetmagandek qaynotam Tillo Ismoilovni ham qamoqqa olishdi. Xo‘jayinim Saydulla Tillayev tuyakashlik qilar edi. Joyi jannatda bo‘lgurlarning barisi qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, beozor odamlar edi. Shulardan birgina Nabi tog‘am Sanayev ko‘p yillar o‘tib qaytib keldi.

BOSHQA HIKOYA

Ikkinchi jahon urushidagi janglarning birida oddiy askar Juma Xushvaqtov dushman qo‘liga asir tushdi. Nemislar qo‘lida ko‘rmaganini ko‘rib, tutqunlikning achchiq azobini yegan yigitni amerikalik ittifoqdoshlar asirlik zulmidan ozod qiladi. Albatta, hamma qatori Juma ham yurtiga qaytishni istaydi. Ammo o‘sha yillarda asirda bo‘lganlarga nisbatan “xoin” degan tamg‘a bosilib, hech qayerda yozilmagan shafqatsiz hukm chiqarilar edi. Shu boisdan Jumaning ham Vatanga qaytishga yuragi dov bermasa-da, ota-ona diydori, aka-uka sog‘inchi ustunlik qildi. Orziqib uyiga qaytib kelayotgan sobiq askarni chegaradan o‘tishi bilanoq hibsga olishadi va Uzoq Sharqdagi Vladivostok shahriga olib kelishib, 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishadi.

Jumaning joni toshdan qattiq ekan. Jazo muddatini o‘tagandan so‘ng unga Amur va Xabarovsk o‘lkasidagina yashashga ruxsat berishdi. Ammo, o‘z yurtiga kelishga izn berishmadi. Nailoj, Juma musofirlikda uylanib, ikki o‘g‘il ko‘rdi.

Nihoyat 1962-yilda unga Ko‘kbuloqdagi ona qishlog‘i Chuqurliga kelishga ruxsat berishdi. Qarindosh-urug‘ uni katta xursandchilik bilan kutib oldi. Lekin Jumaning ko‘zlari otasi mulla Xushvaqtni va onaizori Qambar Yuzboy qizi va singillarini qidirayotgan edi. Oxiri u artofidagilardan ota-onasini so‘radi.

– Ota-onam bu yorug‘ olamdan o‘tganmi?

– Yo‘q, – dedi qishloq sho‘rosi raisi Niyozov, – Otang tirik, onang esa sendan “qora xat” kelgach, ayriliqni ko‘tara olmadi...

– Rajabboy! – deya yigitlardan birini yoniga imladi rais. – Otni minib, to‘g‘ri Chilikgazadagi bug‘doyzorga bor va mulla Xushvaqtni olib kel. Ammo, esingda bo‘lsin, zinhor “O‘g‘lingiz keldi”, degan gapni qilma. O‘zimiz yo‘lini qilib, yotig‘i bilan ko‘rishtiramiz.

Ammo, Rajabboy degani dovdir yigit edi. Mulla Xushvaqt betoqat bo‘lavergach, sirni oshkor qilib qo‘ydi va bu xushxabarni eshitgan otaning yuragi yorilib ketib, o‘g‘liga yetmay jon rishtasi uzildi. Xursandchilik motamga aylandi. Juma otasini o‘z qo‘li bilan yerga qo‘ydi, yettisini o‘tkazib oilasi yoniga, Uzoq Sharqqa jo‘nadi.

Shundan keyin ham u xotini va o‘g‘illari bilan qishlog‘iga uch marta keldi. Juma Xushvaqtov oxirgi kelishida ancha mung‘ayib qolgan, rangi zahil tortib, surgun azoblari asorati bilinib turar edi. U ketar chog‘ida ota-onasi yotgan qabristondan bir siqim tuproq olib ketdi va boshqa qaytib kelmadi. Juma Xushvaqtov vafot etgach, uning o‘g‘illari Vladimir va Aleksandrni Uzoq Sharqdagi hududning mahalliy bezorilari “xoinning o‘g‘li” deb otib o‘ldirishgan, bu musibatni ko‘tara olmagan ayoli ham bir yil o‘tar-o‘tmas olamdan ko‘z yumadi.

NIKOH O‘QIGANI UCHUN...

– Otam Mulla Ibrohim Shernazar o‘g‘li Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan edi, – deya so‘zlaydi Ismoil hoji Ibrohimov. – Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, otam savodli bo‘lgani uchun hukumat ishiga jalb qilingan va Chiroqchi tumani moliya idorasini boshqargan.

50-yillar boshlarida uyimizga to‘pponcha ko‘targan kishilar kelib otamni olib ketishdi. Keyin bilsak, otamning ustidan chaquv xati yozilgan ekan. Xatda otamning qishloqdoshi bo‘lgan Abil va Xoldon ismli ikki yoshning to‘yida shar’iy nikoh o‘qigani bayon qilingan. Chaquv xatini esa begonalar emas, o‘zimizning qishloqdoshlarimiz yozishgan ekan. Otam uch yil Qarshi va Ashxobod qamoqxonasida yotdi. Men o‘shanda o‘n bir-o‘n ikki yoshlardagi bola edim. Onam bilan ikki marta uni ko‘rgani borganimiz yodimda. Nihoyat, qattol Stalin vafot etgach, otam qaytib keldi. Uyimizda arab va fors tilida yozilgan kitoblar ko‘p edi. Lekin otaginam menga eskicha ilmni o‘rgatmadi. Bunga balki boshiga tushgan savdolar sabab bo‘lgandir... Maktabni bitirib, xo‘jalikda cho‘liq, suvchi bo‘lib ishladim. Keyin shofyorlikka o‘qib mashina haydadim. Yangi tuzilgan brigadada tabelchi bo‘ldim. So‘ngra ko‘p yillar paxtachilik brigadasini boshqardim. Ilg‘or bo‘ldim, orden-medallar oldim. Lekin ko‘nglim taskin topmadi...

ALAM VA XO‘RLIK

Bolta Sarmatov ham bolshovoylarning g‘oyalariga ishongan, sovetlar tuzumining faoli bo‘lgan. Jamoa xo‘jaligini tuzish, savodsizlikni tugatish kabi ishlarda ham jonbozlik ko‘rsatgan. U Chiroqchi tumani ichki ishlar bo‘limi zobiti lavozimida xizmat qilgan. Ikkinchi jahon urushi janggohlarida ishtirok etib, yarador bo‘lib uyiga qaytadi. Sog‘lig‘i tiklangach, yana frontga chaqiriladi. Kyonisberg shahri uchun bo‘lgan shiddatli jangda og‘ir yaralanadi va yana ortiga qaytariladi.

– O‘tgan asrning 50-yilida otamiz Bolta Sarmatovni qamashdi, – deydi faxriy quruvchi Bekjon Boltayev. – Nima aybi borligini otam bizga aytmagan. Balki haqso‘zligi, ko‘zi ochiqligi bunga sabab bo‘lgandir, deb o‘ylayman. 1953-yildagi afv tufayli bag‘rimiz to‘ldi, ammo otam doim mahzun kayfiyatda yashadi. Bunga o‘zi ko‘r-ko‘rona jon berib, jon olgan tuzumdan ko‘rgan azoblari, xo‘rlanishlari sabab bo‘lgandir.

Otam qamoqdan kelgach, barcha orden-medallarini, maqtov yorliqlarini o‘choqqa tiqib kuydirib, ko‘mib tashladi. Hukumat bergan barcha imtiyozlardan voz kechib, bozorda savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘ldi va butun e’tiborini farzandlar ta’lim-tarbiyasiga qaratdi.

Ha, qatag‘on o‘z nomi bilan qatag‘on. U bir olov bo‘ldiki, quruqni ham, ho‘lni ham yoqdi. Qamashini ham qurshagan bu olov sor yigitlar umrini yedi, ularning oilasi taqdirida o‘rni bitmas jarohat qoldirdi.

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

MUSHTARIYDAN MAKTUB

RUHLAR SHOD BO‘LSIN



Kamina sakson yosh arafasida ham jadid bobolarimiz haqidagi ma’lumotlarni o‘qishdan charchamayman. Xususan, “Jadid” haftaligidagi har bir maqolani sinchiklab mutolaa qilaman. Ularda ma’rifatparvar ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy xazina va uning ahamiyati haqida bir-biridan go‘zal materiallar berilmoqda. Zero, davlatimiz rahbarining bunday el fidoyilari hayotini o‘rganish va undan ibrat olishga undash bo‘yicha chorlovi ijtimoiy hayotda juda katta voqea bo‘ldi, deb o‘ylayman. Negaki, jadidlar qoldirgan merosning qadr-qimmati, eng avvalo, uning bugungi kunda ham ko‘pchilikka ibrat bo‘la olishidadir.

Men bobom Saidrizo Alizoda hayoti va faoliyati bilan bog‘liq materiallarni, qo‘lyozmalarni o‘rganish jarayonida shu narsaga ishonch hosil qildimki, jadidlar elning chinakam, haqiqiy farzandlari bo‘lishgan. Ular millat manfaati yo‘lida jonini ham fido qilishga tayyor turishgan. Dunyoviy ilmlarni mukammal egallaganliklari uchun millatni faqat ilmgina taraqqiyotga olib chiqishiga qat’iy ishonganlar. Bu yo‘lda mehnat, vaqt va mablag‘larini ayashmagan, ma’rifat uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasini bajarishgan. Lekin biror holda, biror joyda mehnat va xizmatlarini minnat qilishmagan. Shuning uchun ham bobomning faoliyati bilan bog‘liq har bir yangi hujjatni topganimda uni ko‘zlarimga surtaman, bag‘rimga bosaman.

Millat fidoyilari uchun xalqning yaxshi-yomoni, mahram-u nomahrami, tanish-u begonasi bo‘lmaydi. Ular ochgan maktablarda ziyo istagan har bir bola ta’lim olgan. Ular chiqargan gazetalarni butun omma o‘qigan. Negaki, ular xalqqa ma’rifat nima, ilm nima, erkinlik nima ekanligini o‘z hayotlari orqali ham isbotlab berishgan.

Saidrizo Alizoda “Zarafshon” gazetasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Hoji Muin bilan baqamti ishlash jarayonida “Shu’layi inqilob” haftanomasini ham chiqaradi. Fors tilida chop etilgan bu jurnalning 98 ta soni o‘quvchilarga yetib borgan. Bobom fors tilida so‘zlashuvchi aholiga, shuningdek, Eron, Ozarbayjon, Afg‘oniston va Pokistondagi ma’rifatparvarlarga Turkiston ozodligining mohiyati, ilmning qadri, birlashmoqning hikmati haqida juda go‘zal maqolalar yozgan va bu maqolalar hozirgi kunda ham mahalliy hamda xorijlik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Bu maqolalardagi g‘oyalar o‘sha davrdagi inqilobiy kurashning shioriga aylangan. Xususan, “Muallim ila muharrir millatning ikki qo‘lidir” degan iborasi naqlga aylanib ketgan.

Shukrki, bobomizning, umuman, jadidlarning faoliyatiga munosib baho berildi, endilikda ularning ma’naviy boyligi har tomonlama o‘rganilmoqda. Bu haqda ilmiy tadqiqotlar boshlanib ketdi. Bobomizning ham 115, 130, 135 yilliklari davlatimiz rahbarining bevosita yordami bilan munosib nishonlandi. Ushbu meros mohiyati, uni o‘rganish yuzasidan ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi.

O‘tgan yillar davomida kamina Eron, Pokiston va Ozarbayjondagi kutubxonalarda bo‘lib, jadidlar faoliyatiga, ayniqsa, bobomning ishlariga oid juda ko‘plab hujjatlardan nusxa olib qaytdim. Shu uchun ham bugungi kunda u kishining tabarruk nomi bilan ataluvchi ko‘chada joylashgan uy-muzeyda eksponatlarimiz soni besh mingdan oshdi. Ular orasida Saidrizo Alizodaning nafaqat ijodkorlar, jurnalistlar, balki siyosat arboblari bilan yozishmalaridan ham nusxa olingan. Talabalar, yoshlar, keksalar bu yerga tashrif buyurib, eksponatlarni tomosha qilishadi, har gal ularga fidoyi bobomning ibratli fazilatlaridan gapirib beraman.

Jadidlar juda murakkab jarayonda faoliyat ko‘rsatishgan. Bir tomonda xalqning savodsizligi, rus imperiyasi siyosatiga qullik kayfiyati, ikkinchi tomondan atrofdagi kuchli davlatlarning manfaatli targ‘ibotlari, ularga har bir harakatda jasoratli, hushyor bo‘lishni taqozo etgan. Eng og‘ir damlarda ham bir-birini qo‘llab-quvvatlashgan. Chor Rossiyasi, undan keyin sovet imperiyasi ularni doimo bir-biridan uzoq, bexabar saqlashga uringan. Har bir harakatini kuzatib yurgan. Shu tufayli ko‘pchiligi qatag‘on qurbonlariga aylanishgan.

Saidrizo Alizoda turmaga solingandan keyin ham unga ayb qo‘ya olishmagan. Aslida u xorij xavfsizlik tashkilotlari o‘rtasidagi kurashning qurboni bo‘lgan. Hatto u oqlangandan keyin ham Ikkinchi jahon urushi davom etayotganligi sababli aynan KGB tavsiyasiga ko‘ra erkinlikka chiqarilmagan va Vladimir shahrida vafot etgan.

Kamina mashaqqat bo‘lsa-da, bobomning ana shu turmadagi faoliyatini o‘rgandim, u kishiga tegishli bo‘lgan juda ko‘p qo‘lyozma va hujjatlarning, tergov so‘rovlarining nusxalarini olib kelishga muvaffaq bo‘ldim. Qabrining tuprog‘idan ham olib kelib, bu xokni qo‘yib, Samarqanddagi Panjon qabristonida yodgorlik o‘rnatdik.

Shu o‘rinda bobomning jo‘shqin hayotini muhabbat bilan o‘rgangan marhum olimlar Najmiddin Komilov, Begali Qosimov, Saydi Umirov xizmatlari oldida ta’zimdaman va bugungi kunda ham bu merosni diqqat bilan tadqiq etayotgan professor Halim Saidov, faol olim Bahrom Irzayevga minnatdorlik bildiraman.

Jadidlar juda katta meros qoldirishdi. Biz uchun muhimi shundaki, ushbu meros hozirgi kunda jamiyatimizga nihoyatda kerak bo‘lgan ajoyib xislatlarni targ‘ib etadi. Zero, bu ma’rifatparvarlar ishlarini davom ettirish, ularday fazilatlarga ega bo‘lish bugun har birimizning muqaddas burchimiz, deb bilaman.

Farhod ALIZODA,
Saidrizo Alizoda uy-muzeyi rahbari



“Ta’lim – dunyoni o‘zgartiruvchi eng kuchli quroldir.

Nelson MANDELA

YURT QAYG‘USI

IOSIF STALIN va FAYZULLA XO‘JAYEV O‘RTASIDAGI AYOVSIZ BAHS





Ma’lumki, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi Andijon viloyati bo‘limi rahbari, Andijon davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Rustambek Shamsutdinov tashabbusi bilan “Vodiynoma” ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-ommabop jurnali tashkil etilib, bugunga qadar ushbu nashrning 36 ta soni o‘quvchilar e’tiboriga havola qilindi.

2016-yildan boshlab chiqayotgan jurnalning har bir sonida Vatanimizning shonli va qonli o‘tmishi, yurt ozodligi va istiqloli uchun jon fido qilgan ajdodlarimizning hayoti va fojiali taqdiri haqida eng so‘nggi ma’lumotlar, tarixiy fakt va dalillar asosida turkum maqolalar chop etib kelinmoqda.

Jumladan, uning 2024-yilgi 3-sonida R.Shamsutdinov, M.Xudoyorov, N.Akbarova qalamiga mansub “Turkiston, Xorazm va Buxoro tarixiga oid muhim manba” nomli maqolada Rossiya Kommunistik partiyasi Markaziy komitetining IV maxfiy yig‘ilishining yettinchi majlisi stenografik hisoboti haqidagi material e’lon qilingan.

1923-yil 12-iyun kuni yarim tunga qadar davom etgan ushbu yig‘ilishda G.Zinovyev, Akmal Ikromov, Broydo, Lyubimov, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa mas’ul rahbarlar ma’ruza qilishadi. Ko‘p sirli va mudhish voqealarga guvoh bo‘lgan



Kremlning xonalaridan birida bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahs va munozaralarda garchi hamma bir-biriga “o‘rtoq” deya murojaat qilsa-da, majlisda o‘zaro ishonchsizlik, dushmanlik kayfiyati hukm surardi. Buni stenogramma materiallari orqali ham anglash qiyin emas.

Akmal Ikromov o‘zining ziddiyatli nutqida Buxoro Xalq Respublikasi nomidan so‘zlagan hamyurti Fayzulla Xo‘jayevning fikrlarini ma’qullab, o‘lkamizdagi mahalliy aholi o‘rtasida yangi hokimiyatdan noroziliklarni kamaytirish uchun Qizil armiya miltiqlaridan foydalanish samara bermasligini, ta’limga, ijtimoiy sharoitni yaxshilashga, adolatni qaror toptirishga e’tibor qaratish lozimligini noziklik bilan ta’kidlaydi. Bu bilan u sovetlarning Turkistonda o‘tkazayotgan shovinistik va qonli siyosatiga ishora qilayotgan edi.

Majlisda Iosif Stalin va Fayzulla Xo‘jayev o‘rtasida ayovsiz bahs bo‘lib o‘tadi. Xalqimizning jasur va mard o‘g‘loni, mohir va haqqo‘y davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev o‘z yurti va millati manfaatlarini qat’iyat va jasorat bilan himoya qiladi. Ehtimol, qonxo‘r Stalinning yuragida aynan shu kuni Fayzulla Xo‘jayevga nisbatan nihoyatda kuchli adovat paydo bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. Bunday dushmanlik oradan o‘n to‘rt yil o‘tib, endi “xalqlar otasi” va buyuk dohiyga aylangan Stalinning buyrug‘i bilan O‘zbekiston hukumatining birinchi raisini qatl qilish bilan tugagani ma’lum.

Quyida mazkur stenogrammadan ayrim parchalarni e’lon qilar ekanmiz, muhtaram Rustambek Shamsutdinov domla va u kishining shogirdlariga tashakkur izhor etamiz.

YETTINCHI MAJLIS

(1923-yil 12-iyun, kechqurun)



Buxoro. 1921-yil.

I.STALIN: Turkistondagi vaziyat, u yerdagi hozirgi ahvol juda yomon, juda xavotirli. Ayni chog‘da, Turkiston Sharq bilan qattiq bog‘langan millatlarning kombinatsiyasidan iboratligi uchungina emas, o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra eng ko‘p ekspluatatsiya qilinayotgan va imperializmga qarshi kurashish uchun eng ko‘p porox jamg‘argan, Sharqning qoq yuragida o‘rnashgani uchun hamda Sharqni inqilobiylashtirish nuqtayi nazaridan sovet respublikalari orasida muhim respublikadir. Mana shuning uchun Turkiston sovet hokimiyatining eng zaif nuqtasi, nozik tomoni hisoblanadi. Vazifa Turkistonni namunali respublikaga, Sharqni inqilobiylashtirishning ilg‘or postiga aylantirishdan iborat. Bu vazifani kuch-g‘ayratni ayamay, qurbonlarga qaramasdan, har qanday sharoitda amalga oshirishimiz zarur.

Sovet hokimiyatining ikkinchi zaif nuqtasi, deb Ukrainani bilish kerak. Bu yerda madaniyat, savodxonlik ma’nosida ishlarning ahvoli Turkistondagi kabi yoki deyarli shu darajada. Davlat apparati Turkistondagi kabi xalq tili va turmushidan uzoq. Ayni chog‘da Turkiston Sharq xalqlari uchun qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, Ukraina ham G‘arb mamlakatlari uchun shunchalik yoki qariyb shunday ahamiyatga ega...

Xorazm va Buxoro haqidagi ma’ruzalarga o‘taman. Xorazm vakili majlisda yo‘qligi bois, Xorazm haqida gapirmayman: chunki Xorazmda, ochig‘i, partiyaning o‘zi yo‘q. Partiya haqida tozalovdan keyin gapirish mumkin bo‘ladi. U yerda bir necha ming partiya a’zosi hisobda turadi, deyishadi. O‘ylaymanki, partiyaviy tozalovdan so‘ng Xorazmda yuztadan ham kam partiya a’zosi qoladi. Buxoroda ham o‘tgan yili ahvol xuddi shunday edi, u yerda 16 ming partiya a’zosi hisobda turardi, tozalovdan keyin ming nafardan ozroq partiya a’zosi qoldi.

Buxoro haqida gapira turib men taqdim etilgan ma’ruzalarning umumiy ohangi va umumiy xarakteri haqida ikki og‘iz so‘z aytishim kerak. Respublikalar va oblastlar to‘g‘risidagi ma’ruzalar haqqoniy bo‘ldi, umuman, haqiqiy voqelikdan uzoqlashmadi. Faqat bitta ma’ruza haqiqiy voqelikdan uzoq bo‘ldi, bu Buxoro haqidagi ma’ruzadir. Bu hatto ma’ruza ham emas, boshdan-oyoq diplomatiya, chunki Buxorodagi barcha salbiy jihatlar yashirib ketilgan, xaspo‘shlangan, yaltirab, ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan hamma narsa xo‘jako‘rsin uchun birinchi planga olib chiqilgan. Xulosa – “Buxoroda hammasi joyida”.

O‘ylaymanki, biz bu majlisga bir-birimizga ustamonlik qilish, bir-birimizga ko‘z suzish uchun, birovni orqa qilib, boshqalarni laqillatish uchun kelganimiz yo‘q. Aksincha, bor haqiqatni aytish, hamma illatlarni kommunistchasiga aniqlash, ularni ochib tashlash, yaxshilash yo‘llari va vositalarini ishlab chiqish uchun keldik. Faqat shunday sharoitdagina biz oldinga siljiy olamiz.

Shu nuqtayi nazardan Buxoro haqidagi ma’ruza boshqa barcha ma’ruzalardan o‘zining haqiqatdan uzoqligi bilan ajralib turadi. Men bu yerda ma’ruzachiga Buxorodagi Nozirlar Kengashining tarkibi haqida bejiz savol bermadim. Nozirlar Kengashi – bu Xalq Komissarlari Soveti. U yerda dehqonlar, ya’ni krestyanlar bormi? Ma’ruzachi javob bermadi. Ammo menda bu haqda ma’lumot bor. Ma’lum bo‘lishicha, Buxoro hukumati tarkibida birorta ham dehqon yo‘q. Hukumatning 9 yoki 11 a’zosi orasida boy savdogarning o‘g‘li, *do‘kondor, ziyoli,* mulla, *do‘kondor, ziyoli,* yana do‘kondor bor, ammo birorta ham dehqon yo‘q. Ayni chog‘da, hammaga ma’lumki, Buxoro asosan dehqonlar mamlakati hisoblanadi.

Bu masala Buxoro hukumatining siyosati to‘g‘risidagi masalaga bevosita taalluqli. Tepasida kommunistlar turgan bu hukumatning siyosati qanaqa? U dehqonlarning, o‘z dehqonlarining manfaatlari bilan hisoblashadimi? Men kommunistlar rahbarlik qilayotgan Buxoro hukumatining siyosatini yaqqol ko‘rsatadigan faqat ikkita kichik faktni dalil qilib ko‘rsatmoqchiman. O‘ta mas’uliyatli o‘rtoqlar va partiyaning keksa a’zolari imzolagan hujjatdan ko‘rinadiki, masalan, Buxoro davlat banki o‘z faoliyatini boshlagandan buyon xususiy savdogarlarga 75 foiz, dehqonlar kooperativlariga 2 foiz kreditlar bergan. Absolyut raqamlarda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: savdogarlarga 7 million tilla rubl, dehqonlarga 220 ming tilla rubl.

Keyin: Buxoroda yerlar musodara qilinmagan. Lekin u yerda amirning chorva mollari... dehqonlar foydasiga musodara qilingan. Xo‘sh, nima bo‘pti? O‘sha hujjatdan ma’lum bo‘lishicha, dehqonlar uchun qariyb 200 bosh mol musodara qilingan, qolganlari, albatta, badavlat dehqonlarga sotilgan.

Bu hukumat yana “sovet”, “xalq hukumati” deb ataladi! Buxoro hukumatining tavsiflab berilgan faoliyatida hech qanday xalqona, sovetcha narsa yo‘qligini isbotlab o‘tirishga hojat bo‘lmasa kerak.

Ma’ruzachi Buxoroning RSFSR va Respublikalar Ittifoqi bilan munosabatlari haqidagi masalani quvonarli qilib yoritdi. Uning nazarida, bu borada hammasi joyida. Ayon bo‘lishicha, Buxoro Respublikasi Ittifoqqa kirishni xohlaydi. Ma’ruzachi, aftidan, darvozalar ochilishi uchun Respublikalar Ittifoqiga kirish istagining o‘zi yetarli deb o‘ylaydi, shekilli. Yo‘q, o‘rtoqlar, bu ish shunchaki oddiy emas. Hali yana so‘rash kerak: Respublikalar Ittifoqiga kirishga ijozat berishadimi? Ittifoqqa kirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun Ittifoq xalqlari ko‘z o‘ngida Ittifoqqa kirish huquqiga oldindan munosib bo‘lish, shunday huquqqa erishmoq zarur. Buxorolik o‘rtoqlarga shuni eslatib o‘tmoqchimanki, Respublikalar Ittifoqi axlat to‘kiladigan joy emas...

I.Stalinning nutqidan so‘ng Buxoro Xalq Sovet Jumhuriyati Nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayev so‘z olib, bildirilgan tanqidiy mulohazalar yuzasidan quyidagicha ma’lumot berib o‘tdi:

F.XO‘JAYEV: O‘rtoqlar, men o‘rtoq Stalin o‘rtaga qo‘ygan masala yuzasidan ma’lumot bermoqchiman. Birinchidan, o‘rtoq Stalin kecha Buxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi rayosatining tarkibi bo‘yicha so‘ragan edi. Men unga, butun Buxoro Markaziy Ijroqo‘mi bo‘yicha dehqonlar 65 foiz, rayosatda 2 foiz, deb javob berdim. Modomiki, menda bu raqamlar bor ekan, ular stenogrammada ham yozildi va yozma ma’ruzada ham ko‘rsatildi, men bu yerda hech qanday ustomonlik qilayotganim yo‘q. Albatta, bizda sovet apparati yoppasiga dehqonlardan iborat, deb aytib bo‘lmaydi. Avval aytganimdek, uning tarkibida bir savdogar, yana mulla bor, qolganlari milliy ziyolilar vakillaridan iborat. Bu haqda ilgari ham aytganman.

Nozirlar Kengashiga kelsak, unda dehqonlar, bevosita yerdan unumli foydalanadigan dehqonlar yo‘q, shu boisdan u yerda boylar ham yo‘q.

Davlat bankiga kelsak, bu – boshqa gap. Bu o‘rinda o‘rtoq Stalin haq, faqat raqam noto‘g‘ri. Ular 1923-yilning boshiga, Davlat bankining ikki oylik faoliyatiga taalluqli. Markazqo‘m vakili buni tasdiqlashi mumkin.

Bu masala Nozirlar Kengashining majlisiga qo‘yilgan edi va biz shunday holat mavjudligini ko‘rib, bu ko‘ngilsiz voqeaga barham berish to‘g‘risida qaror qabul qildik hamda u o‘shandan buyon barham topdi. Bu besh-olti oy ilgari bo‘lgan edi, bayonnomasi bor. Shundan keyin birorta ham bunday voqea ro‘y bermadi. Buni men raqamlar va hujjatlar bilan tasdiqlay olaman. 123 bosh chorva moliga kelsak, bu mutlaqo noto‘g‘ri. O‘rtoq Stalinga noto‘g‘ri axborot berishgan. Menda qancha mol qayerga berilganini ko‘rsatadigan raqamlar va ma’lumotlar mavjud. Men mana shu ma’lumotni bermoqchi edim...”

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mamarasul Rasulov – 1900-yili tug‘ilgan, Andijon rayoni Mirobod qishlog‘idan. Millati o‘zbek, sobiq faol bosmachi, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. 1933-yili Davlat siyosiy boshqaruv tashkiloti organi tomonidan qamoqqa olingan. Doimiy ravishda aholi o‘rtasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, aksilinqilobiychilarni himoya qilganlikda, “Trotskiy – inqilobning taniqli arbobi”, deb maqtaganlikda ayblanib, “uchlik”ning 1937-yil 29-avgustdagi yig‘ilishida 10 yil muddatga mehnat tuzatish lageriga hukm etilgan.

Hakimxo‘ja Abbosxo‘jayev – 1889-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining faol a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingunga qadar rayon matlubot jamiyati huzuridagi sut zavodida instruktor bo‘lib ishlagan. Avvaldan sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatda bo‘lib, aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, Oliy Sovetga saylovlar to‘g‘risida tuhmat tarqatganlikda, “Yashirin ovoz berish – o‘zbeklarga qarshi kurashdir”, deb aytganlikda ayblangan. U 3318-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

Muqimbek Hamzabekov – 1894-yilda tavallud topgan. Karmana rayonidagi yirik amir amaldorining o‘g‘li. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, sobiq bosmachi. Atrofidagilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy millatchilik trotskiychilik tashviqoti olib borganlikda, sovet hokimiyati va uning tadbirlari sha’niga aksilinqilobiy bo‘htonlar bildirib, monarxik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. Muqimbek Hamzabekov 2329-sonli ish bo‘yicha otib tashlangan.

G‘ulomjon Jaloldinov – 1885-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Sobiq amir amaldori, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Chet el bilan aksilinqilobiy yozishmalar uchun 5 yilga qamalgan. Aholi orasida aksilinqilobiy tashviqot olib borganlikda, Sovet Ittifoqiga bo‘hton qilganlikda, Afg‘onistonga qochish uchun tayyorgarlik ko‘rganlikda ayblanib, otilgan.

Tursunali Qalandarov – 1884-yilda Lenin rayoni Mozor qishlog‘ida tug‘ilgan. Qatag‘on davrida quloqqa tortilgan. 1930-yilgacha “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingunga qadar diniy xizmatchi, imom sifatida faoliyat yuritgan. Doimiy ravishda aholi orasida targ‘ibot olib borganlikda, urush va hukumatdagi o‘zgarish to‘g‘risida tashviqot ishlarini o‘tkazganlikda, SSSRdagi ocharchilik to‘g‘risida mish-mish tarqatganlikda ayblangan. U 2814-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan.

Mulla Juma Ahmadaliyev – 1880-yili Lenin rayoni Abdujuvozboshi qishlog‘ida tug‘ilgan. Aholi orasida aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik va kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, urush va hukumat o‘zgarishi to‘g‘risida tashviqot qilganlikda ayblanib, 2814-sonli ish bo‘yicha otib tashlangan.

Ibrohim Sarkar Obidinov – 1881-yili tug‘ilgan. Lenin rayoni Yomonyor qishlog‘idan. Quloqqa tortilgan. Dastavval “Sho‘royi Islom” tashkiloti tarkibida bo‘lgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Doimiy ravishda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, yaqin orada urush bo‘lishi haqida va SSSRdagi ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. U 2814-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

Mulla Aranboy Sa’diyev – 1890-yili Lenin rayoni Abdujuvozboshi qishlog‘ida tug‘ilgan. Sobiq savdogar. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik va kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, “chet el davlatlari bilan urush sabab sovet hokimiyati yaqinda qulaydi”, degan mish-mish tarqatganlikda, xalq dushmanlari to‘g‘risida rahmdillik kayfiyatini bildirganlikda ayblanib, 2814-sonli ish bo‘yicha otuvga buyurilgan.

Abdulla Abdullayev – 1878-yili tug‘ilgan. Dog‘istondan, xizmatchi, hibsga olingunga qadar Kislovodskdagi sanoat soyuzi magazini direktori vazifasida ishlagan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilot a’zosi sifatida tashkilot topshiriqlarini bajarganlikda, Kavkazdagi burjua millatchilari bilan aloqada bo‘lib, yig‘ilishlarda qatnashib, sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 1937-yil 14-oktyabrda 615-sonli ish bo‘yicha oliy jazo – otuvga hukm qilingan.

Nabixo‘ja Saidxo‘jayev – 1879-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Diniy xizmatchi, imom. “Sho‘royi Islom” tashkilotining faol a’zosi, aholi orasida doimiy ravishda mag‘lubiyatchilik va fashistik targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Nabixo‘ja Saidxo‘jayev 4574-sonli ish bo‘yicha oliy jazoga hukm qilingan.

Mahmud Nurillayev – 1873-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilotidagi faoliyati uchun qamoqqa olingan. U tabiblik bilan shug‘ullangan. Aholi orasida aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. Buxoro sektori taqdim etgan 2437-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan.

Boboqori G‘ofurov – 1890-yili tug‘ilgan. Tojikiston SSR Leninobod rayonidan. Politsiyachining o‘g‘li, diniy marosimlar xizmatchisi, imom, qori sifatida tanilgan. Aksilinqilobiy “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lib doimiy ravishda aholi orasida mag‘lubiyatchilik kayfiyatidagi targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. U 4885-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan..

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

Oriflik maqomiga erishgan HOFIZ

Boshlanishi 1-sahifada.

1954-yil bobom hayotida yana bir muhim voqea yuz beradi, u kishini estrada teatriga ishga taklif etishadi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, u yerda xonanda sifatida ishlash bilan birga, Orif Alimaxsumov mashhur san’atkor Muhammadjon Mirzayevdan san’at sirlarini o‘rganadi. Katta ustozlar bilan birgalikda 1955-56-yillarda viloyatlar va qo‘shni respublikalarda gastrol safarlarida bo‘lib, xalq nazariga tushadi.

1957-yilda Yunus Rajabiy Orif Alimaxsumovni radio qoshida yangi ochilgan maqom ansambliga ishga taklif etadi. Tez orada mohir xonanda zamondosh bastakorlarning yangi ashulalarini, katta ashula va yallalarni, xususan, avjlari bepoyon “Shashmaqom” ohanglarini kuylab, ustozlar ishonchini, muxlislar mehrini qozona boshlaydi.

Mashhurlik, muxlis-u mutaxassislar e’tirofi – bularning bari yaxshi, lekin bobom shon-shuhratga, maqtovlarga ko‘p ham e’tibor beravermas, ayniqsa, shuhratga omonatgina bir buyumga qaragandek qarar edi. Ustoz Yunus Rajabiy bilan o‘n to‘qqiz yil mobaynida ijodiy muloqotda bo‘lib, u kishidan nafaqat musiqiy, balki ko‘plab hayotiy saboqlar olganini faxrlanib eslar edi.

Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli badiiy rahbari, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov xotiralaridan:

“Shunday tuyg‘ular bo‘ladiki, ularni tilga chiqarish shart emas. Masalan, o‘zingiz benihoya hurmat qiladigan insonga “Sizni hurmat qilaman”, deyishning hojati yo‘q. Hurmat-ehtiromni xatti-harakatlaringiz, go‘zal muomalangiz, qilgan ishlaringiz bilan ko‘rsatishingiz ham mumkin. Men Orif ota Alimaxsumov va u kishining ulug‘ ustozi akademik Yunus ota Rajabiy o‘rtasidagi munosabatlarda bunga amin bo‘lganman. Orif ota ustozini oldida ham, ortidan ham shu qadar e’zozlar, hurmatini joyiga qo‘yar ediki, ustoz-shogirdning bu muomalalariga barchamiz havas qilar edik.

Nafaqat professional san’atkor, mohir ijrochi ekani bois, balki san’atga, o‘zidan yoshi ulug‘ hofizlarga bo‘lgan cheksiz hurmati, sadoqati tufayli ham Orif Alimaxsumov ustozi Yunus Rajabiydan o‘rgangan maqomlarning birontasini ham o‘zgartirganlari yo‘q. Dastavval qanday ijro etilgan bo‘lsa, shundayligicha bizga o‘rgatar edi. O‘rganish jarayonida har bir xonandadan ijro qilib berishni so‘rar, diqqat bilan eshitib, xatoga yo‘l qo‘ysa, erinmasdan tuzattirar edi. “Bolajonim”, – deb murojaat qilardi yosh xonandalarga, – juda yaxshi ijro bo‘ldi, lekin mana shu pardada ozgina xatolikka yo‘l qo‘ydingiz, keling, aslidagidek bir aytib ko‘ring-chi”. Bunday go‘zal, dilbar muomaladan so‘ng xonanda, albatta, yanada ilhom va ishtiyoq bilan kuylar, ijrosi ko‘ngildagidek chiqar edi.

Orif Alimaxsumovning ovozi tik, ya’ni “lirik tenor” bo‘lib, ilmiyroq til bilan tushuntirganda, egiluvchan, yumshoq va shu bilan birga shijoatli, jarangdor, yuqori avjlarni to‘liq ijro qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Shu bois maqomlarning avjini ko‘p hollarda yakka o‘zi ijro etardi. Mashhur hofiz Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev bilan birgalikda birinchi marta maqomning magnit tasmalariga tushirilishida faol ishtirok etgan fidoyi insonlardan biri ham bobom – Orif ota Alimaxsumov bo‘lganidan biz, avlodlari doim faxrlanib yuramiz. Zero, u kishi ko‘p yillar davomida mazkur ansamblda ishlab, mingdan ziyod noyob mumtoz asarlarni radioning oltin xazinasiga muhrlashda fidokorona xizmat qilgan.

Radio arxividagi “Shahnozi Gulyor”, “Mo‘g‘ulchai Navo”, “Savti kalon”, “Girya I-II”, “Fig‘on”, “Sarparda”, “Chorgoh”, “Dugoh Husayniy” kabi o‘lmas asarlar Orif Alimaxsumov ijrosida xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. Shuningdek, u kishi Yunus Rajabiyning “Ra’nolanmasun”, Orifxon Hotamovning “Qaro bo‘libdur”, “Jonon qiz”, Faxriddin Sodiqovning “To‘y muborak”, “Gullar vodiysi”, “Yashil qishloq”, Imomjon Ikromovning “So‘lim”, Muhammadjon Mirzayevning “Baxt” va boshqa 200 dan ortiq bastakor asarlarini ham maromiga yetkazib kuylagan.

1976-yilda akademik Yunus Rajabiy vafotidan so‘ng, u kishining yozma va og‘zaki vasiyatiga binoan Orif Alimaxsumov maqom ansambliga badiiy rahbar etib tayinlanadi. Bobom bu lavozimda ustozi singari uzoq yillar xizmat qilib, mumtoz musiqamiz rivoji yo‘lida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirdi.

1972-yili Toshkent (hozirgi O‘zbekiston davlat) konservatoriyasida Sharq musiqasi bo‘limi ochildi. Bu yerda o‘zbek mumtoz musiqachi sozandalari va maqom ijrochilari tayyorlanadigan bo‘ladi. Orif Alimaxsumov konservatoriyada shogirdlar tarbiyalashga birinchilardan bo‘lib taklif etilgan. Bu dargohdan xalqimizga manzur bo‘ladigan ko‘plab xonandalar yetishib chiqdi. Shulardan, O‘zbekiston xalq hofizlari Mahmud Tojiboyev (marhum), Mashrabjon Ermatov, Erkin Ro‘zimatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Rahmatjon Qurbonov (marhum), Hurriyat Isroilova, Mansur Ma’mirov kabi el sevgan xonandalar Orif Alimaxsumov sinfida tahsil olganligidan faxrlanadi.

Bobom rahmatli nafaqaga chiqqanlaridan so‘ng o‘n yildan ortiq vaqt davomida o‘zi istiqomat qilgan “Yakkasaroy” mahallasining oqsoqoli sifatida faoliyat yuritdi. Hududdagi yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan mahalla faollari ularni juda ham hurmat qilib e’zozlar, ana shu inson bilan mahalladosh ekanidan g‘ururlanar edi.

Jamoatchilik ishlarida faol bo‘lgan bobom xayrli amallari, samimiy to‘g‘ri pand-u nasihatlari bilan oqsoqollar orasida ham ajralib turardi. U kishi ko‘p yillar oynayi jahon orqali muntazam berib boriladigan “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” turkum ko‘rsatuvlariga boshlovchilik qildi.

Ko‘rsatuv bosh rejissyori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Mirabbos Mirzaahmedov xotiralaridan:

“Orif ota Alimaxsumov teletomoshabinlarni sehrlab qo‘yar edi. Men o‘zim ham ko‘p guvoh bo‘lganman, ko‘rsatuv efirga ketadigan kuni avtobusda uyga qaytar ekanman, yo‘lovchilar haydovchiga: “Tezroq haydasangiz-chi, axir bugun “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” bo‘ladi, kech qolmaylik. Otaxonning (Orif ota Alimaxsumovni hurmatlab: “Otaxon” deyishardi) so‘zlarini eshitishga ulgurib qolaylik!” deyishardi.”

Orif Alimaxsumov 2005-yil bu yorug‘ dunyoni tark etgan bo‘lsada, hali-hanuz u zotning ijro etgan yuzlab ashulalari yosh xonandalar uchun dastur, shinavandalar uchun esa qalblariga huzur bag‘ishlaydigan ajoyib asarlar sifatida yashab kelmoqda.

Men shunday ulug‘ insonning nabirasi ekanimdan, u kishining shaxsan o‘zidan san’at va hayot saboqlarini, tillolarga teng nasihat-u duolarini olganimdan faxrlanaman.

Xotiramda qolgan eng zalvorli o‘gitlaridan biri bu sanoyi nafisa – san’at yo‘lida barchaga birdek samimiy muomalada bo‘lish, va’daga vafo qilish, eng asosiysi, hayotda halol, pok yashash kerakligi haqidagi so‘zlaridir. Bu o‘gitlar mening hayot yo‘llarimni yoritib turuvchi chiroqlardir.

Kamoliddin ALIMAXSUMOV

TILBILIM



“KAMPIRNING DARDI G‘O‘ZADA”MI YO?..

Ochig‘i, bu maqolning ma’nosiga unchalik tushunmaganman. Nega kampirning dardi g‘o‘zada bo‘lishi kerak? Yaqinda O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova bilan safarda yurganimizda shu maqol haqida gap ketdi. Opa: “Eshitganim bor. “Kampirning dardi g‘o‘zada” emas, g‘ozada. Abdulla Qodiriy ham g‘oza so‘zini ishlatgan ekan” deb qoldi.

Shundan keyin ichimga g‘uluv tushdi. Uyga kelib, o‘zim ko‘p qaraydigan – “Ma’nolar maxzani” kitobini varaqladim. Unda bu maqolga berilgan sharhda shunday joyi bor: “Chol: E Xudo, tilla to‘la ko‘za ber”, deydi. Kampir: “E Xudo, savat to‘la g‘o‘za ber”, deydi. Ilgari aksariyat kampirlar kunlarini g‘o‘za(ko‘sak) chuvish, charx yigirish bilan o‘tkazardilar. Mazkur maqolni: “Har kim o‘zi yaxshi ko‘radigan, o‘z tirikligini ta’minlaydigan, o‘ziga ermak, huzur-halovat baxsh etadigan narsalar haqida o‘ylaydi, o‘shanga erishish harakatida bo‘ladi” degan ma’noda qo‘llaydilar”. Bir qarashda bu sharh to‘g‘riga o‘xshaydi. Lekin...

Men bu kitobdan so‘ng “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan g‘oza so‘zini izladim va quyidagi sharhni o‘qidim: **G‘OZA.** *(f. Ayollar yuziga suradigan qizillik, elik).* esk. Yuzga suradigan qizil rangli pardoz buyumi, elik. Kampirning dardi g‘ozada. Har kim o‘z tashvishi, o‘z istagi, maqsadi haqida o‘ylaydi yoki qayg‘uradi, degan ma’noda ishlatilgan matal.

Mana bu boshqa gap. Bu yerda maqol va matallarimizga xos kinoya bor, tilimizga mos kesatish bor, milliy qarashlarimizga yarasha mantiq bor, muhimi badiiyat bor. Menimcha, chol-u kampir aytishuvida ham cholning tilla to‘la ko‘za so‘rashi bor gap. Lekin kampir savat to‘la g‘o‘zamas, savat to‘la g‘oza so‘ragan bo‘lsa kerak.

Alisher Navoiy ham g‘oza so‘zini upa-elik ma’nosida ishlatgan ekan:

Yasadi beqiyos-u andoza,
Sabzadin vo‘sma, loladin g‘oza.
(“Sab’ayi sayyor” dostonidan.)

Eshqobil SHUKUR

JAHON AYVONIDA

* * *

AQShning yangi prezidenti Donald Tramp “Tesla” va “Space X” asoschisi, tadbirkor Ilon Maskni hukumatning samaradorlik departamenti rahbari etib tayinladi. Bu haqda siyosatchi o‘zining “Truth” ijtimoiy tarmoq sahifasida ma’lum qilgan.



* * *

Ukrainada prezidentlik saylovi 2025-yilning 25-may sanasida bo‘lib o‘tishi mumkin. Britaniyaning “Economist” nashri ta’kidlashicha, Ukraina prezidentining ofisi ovoz berishga tayyorgarlik ketayotganini rad etgan. Nashr bilan suhbatlashgan manbalarning aksariyati saylovning o‘tkazilishiga shubha bilan qaragan.

* * *

Yaponiya bosh vaziri qayta saylanayotgan vaqtda uxlab qoldi. Shigeru Ishiba yangi muddatga qayta saylanishi munosabati bilan ovoz berish vaqtida parlament zalida uxlab qolgan. Shunga qaramay, ovoz berish uning foydasiga yakunlangan. Ishiba Yaponiya xavfsizligini kuchaytirish va mintaqadagi barqarorlikni ta’minlash tarafdori sifatida tanilgan.



* * *

Germaniyalik ekstremal sportchilar 2500 metr balandlikda arqon ustida yurib, yangi jahon rekordini o‘rnatdi. Ushbu rekord Fridi Kyune va Lukas Irmlerga tegishli. Sportchilar ikkita havo shari orasidan tortilgan arqon bo‘ylab harakatlangan.

* * *

Italiyaning Pompey shahri xarobalariga sayohatchilar tashrifi cheklanadi. Hududga keluvchi sayyohlar soni haddan tashqari ko‘paygan. Bu unga zarar yetkazishi mumkin. Pompey arxeologiya parki direktori Gabriel Suxtriegelning ta’kidlashicha, hozirning o‘zida sayyohlar kuniga 15-20 ming kishidan oshyapti.



* * *

“Sotheby’s” auksion uyi yaqinda sun’iy intellekt (AI) algoritmlaridan foydalangan holda inson qiyofasidagi robot tomonidan yaratilgan birinchi san’at asarini 1 million dollarga sotdi. Kimoshdi savdosida gumanoid robot rassom AI-Da tomonidan yaratilgan “Alan Tyuringning portreti” (2024) nomli asar 1 084 800 dollarga sotildi. AI-Da gumanoid roboti suratni ko‘zlaridagi kameralar va sun’iy intellekt algoritmlari yordamida chizgan va bo‘yagan.

* * *

Millionlab hindistonliklarning moliya bozorlariga kirib kelishida raqamlashtirish muhim rol o‘ynadi. “Groww” va “Zerodha” kabi platformalar keng aholiga sodda shaklda investitsiya kiritish imkoniyatlari eshigini ochdi. Hindiston fond bozoridagi inqilob raqamli dunyoda moliyaviy bozorlarda qatnashish qanchalik oson bo‘lib borayotganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, jamoatchilik qisqa vaqt ichidagi bunday o‘sish qanday xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham kuzatib borish imkoniga ega.



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Iftixor Xonxo‘jayev

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 827
Lotin yozuvidagi adadi – 11 904
Media kuzatuvchilar – 19 410
Buyurtma: G – 1140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:15
Sotuvda narxi erkin.